

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

14 -YANVAR - VATAN HIMOYACHILARI KUNI

BIR TAN-U BIR JONMIZ!

Qudratli milliy armiya tuzish jadid bobolarimizning eng asosiy maqsadlaridan biri edi. Biz bu niyat va yo'riqni peshqadam bobolarning Turkiston muxtoriyatiga yo'llagan maktublarida ko'ramiz. Afsuski, bu umidlar qattol saltanat tomonidan juvonmarg etildi, umidlar sarobga do'ndi.



Jadidlar harbiy ishi yuzasidan fikr yuritsalar, albatta buyuk Temur sohibqiron nomi tilga olingan. Sohibqiron bobomiz biz uchun buyuk darslik, saboq bo'lgan "Temur tuzuklari"da: "Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi qildim", deydi. Qarang, qanday ulug' gap! Qanday haqqoniy yo'll! Bugungi kunda yurtimizda ushbu odil tuzukka hamohang, buyuk bobomizning tutumlariga monand xalqparvar, umuminsoniy siyosat yuritilayotgani bois mamlakatimizda misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar, yuksalishlar ro'y beryapti.

Ayni paytda azamat yigitlarimiz nufuzli xalqaro harbiy o'yinlarda, musobaqalarda g'olib bo'lib kelishyapti. Harbiy xizmatni o'tayotgan yigitlar ma'naviyat, kitobxonlik bobida ham yurtimiz yoshlari orasida ilg'orlardan hisoblanadi. Ular orasida sportning turli yo'nalishlari bo'yicha Osiyo va Jahon chempionlari bor. Ularning ko'zlaridagi shijoatni, olovni ko'rib, havasiz keladi.

Bugun dunyoni ilm boshqarmoqda. Qaysi sohani qaramang, uning rivojida ilm-fan birlamchi, asosiy negiz, poydevor vazifasini o'tayapti. Hozirgi zamonada kim ilmli bo'lsa, kim ko'proq izlangan, mehnat qilgan bo'lsa, uning so'zi so'z, gapi gap.

2017-yili Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev bir yig'ilishda harbiy ta'limda kuzatilgan oqsashlarni, xususan, "Suvorov" deb yuritib kelingan harbiy maktablarda milliy ruhning yo'qligi, davr talablaridan ortda qolish namoyon bo'layotganini tanqid qilgandi. Albatta, bu achchiq haqiqatni bilsak-da, uni o'zgartirishga qurbimiz yetmasdi. Imkonsiz, najotsiz edik.

Shu o'rinda, ko'ngildan "Suvorov kim edi?" degan savol o'tadi. To'g'ri, u ham o'z davrida xalqiga xizmat qilgan bir inson bo'lgan. Lekin Amir Temur-

dek buyuk saltanat tuzgan, harbiy san'atni yuksak darajaga ko'targan, adolat va ma'rifat homiysi bo'lgan, bunyodkorlik, obodlikka beqiyos hissa qo'shgan, o'zidan bebaho meros qoldirgan ulug' zotlar dunyo tarixida juda kam o'tgan.

Davlatimiz rahbarining g'oyasi va tashabbusi bilan harbiy ta'lim maskanlari "Temurbeklar maktabi" deb ataldi. Ahamiyatli, bu o'quv dargohlarining faqat nomi o'zgarmadi, balki ulardagi muhit, shart-sharoitlar butunlay yangi mazmun, yangi qiyofa kasb etdi.

Albatta, harbiy ta'lim dargohlaridagi muhitni yangilash haqida gap ketganda, faqat Amir Temur bobomizning suratini osib qo'yish bilan ish bitmasligi ayon haqiqat edi. Shu bois bu yerda mutaxassislarni ishga jalb qilish tartiblari, o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar qayta ko'rib

chiqildi. Dars sifatini oshirishga, o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini, madaniyatini va urf-odatlarini chuqur hurmat qilish, halollik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari xislatlarni, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirishga urg'u berildi.

Yosh avlodga xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, avvalo, Amir Temurning bebaho merosini, jang san'atini o'rgatishga, ularda O'zbekiston xalqiga sodiqlik, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirishga e'tibor kuchaytirildi.

"EI-yurtimiz taqdiri - mening taqdirim, Vatanimning kelajagi - mening kelajagim", degan ezgu tamoyil bu yerda kamol topayotgan yoshlarning hayot tuzugiga aylangan. Bu juda muhim yutuq. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "O'z

farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat, qanday qudratli qurolga ega bo'lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi".

Shukur deymiz, siz bilan biz jadid bobolarga armon bo'lgan orzular ro'yobini ko'rish saodatiga erishdik. Bugun tom ma'noda milliy qiyofa kasb etgan qudratli armiyamiz mamlakatimiz va xalqimizni har qanday tashqi tajovuz va xavfdan muhofaza qila oladi. Bunga Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi vakili hamda xalq bilan armiya o'rtasida xolis vositachi sifatida men to'la-to'kis ishonaman.

Bunday yangicha yondashuv, yangicha qarash, yangicha siyosat - Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tarixiy islohotlarning mevasidir.

Iqbol MIRZO

DAVRA SUHBATI

"UYG'ON, BOLAM!"

Bugun "jadid" so'zining mohiyatini yoshlarga anglatish, jadidlarning ilg'or qarashlarini jamiyatga singdirish, ular ilgari surgan g'oyalarni hayotimizga to'la tatbiq etish kun tartibida turibdi. Avvalo, istibdod changalida ham ma'nana, ham jisman ezilgan jadidlarimiz mustaqillik davrlarida ham uzoq vaqt eslanmadi, asarlari chop etilmadi. Nihoyat, shunday kunlar keldiki, bugun ularning g'oyalari jamiyatimiz rivoji uchun dasturilamalga aylanib bormoqda.

Albatta, jadidlarga bo'lgan bu kabi ehtirom kishini xursand qiladi. Muhtaram Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida: "Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari - uyg'oq qabli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik", degan gaplari bejiz emas. Shu ma'noda, millatimiz ziyolilari, madaniyat va ma'naviyat sohasining yetuk vakillari bilan davra suhbatini tashkil etdik.

(Davomi 2-3-sahifalarda)

XOTIRA AZIZ

QATAG'ON QURBONLARI

Prezidentimiz Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqida "XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizning xotirasini e'zozlash lozimligini alohida ta'kidladi. Ayniqsa, ularning hayoti va faoliyatini o'rganish, sharafli nomlarini tiklash, tarix haqiqatini aytish, hatto jadid bobolar yashagan uylargacha aniqlash va yodgorlik lavhalarini o'rnatish haqidagi takliflari barchaga ruh, rag'bat bag'ishladi.

Taniqli olim, tarix fanlari doktori, professor Rustambek SHAMSUTDINOV sovet davrida O'rta Osiyo, Turkistonning 1917-1925-yillardagi tarixiga bag'ishlangan ilmiy ishlarini tayyorlash jarayonida Moskvadagi qator markaziy arxivlarda, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ukraina, Shimoliy Kavkaz arxivlaridagi hujjatlar, davriy matbuot materiallarni chuqur o'rganib, o'sha suronli 1937-1938-yillarda qatag'on uchragan, uzoq muddatlarga hukm etilgan, konslagerlar azob-uqubatlarini tortganlarning xotiralarini jamlagan. Albatta, qatag'on qurbonlarining soni minglab, gazetaning ushbu va navbatdagi sonlarida aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkilotining ayrim a'zolari haqida qisqacha ma'lumotlar berib borishni rejalashtirdik. O'ylaymizki, gazeta sahifalarida e'lon qilingan qatag'on qurbonlarining ismi-sharifini o'qib, ularning farzandlari, nabiralari topiladi. Ular bobolaridan qolgan xotiralar yoki kitoblar bo'lsa, tahririyat bilan o'rtoqlashadi, degan umiddamiz.

Davomi 7-sahifada

BUGUNNING SHE'RI

Keyingi paytlarda chetdagi ayrim g'arazgo'y, shovinizt kimsalar (ular orasida o'zini yozuvchi deb biladigan kishilar ham borligi ayniqsa achinarli) tomonidan yurtimizga nisbatan bildirilayotgan havoyi da'vo-dastaklarga otashnafas shoiramizning ushbu she'ri munosib javob bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Tahririyat

Kishanlar kiyaymi,
Bo'yin egaymi,
Erkimni beraymi senga qaytarib?
O'zni unutammi,
qonlar yutaymi,
turaymi qoshingda mu'te, muztarib?!
Chopaymi
Chopilgan tomirlarimni,
Sug'urib beraymi tilimni?!
Bir "hayti!" deb,
Sermasang qamchining,
Qul qilib beraymi Elimni?!
Ko'zimni yumaymi,
Endi ochilgan
Tarixning asotir kitoblaridan?
Yuzimni buraymi,
Yovdan yuzini
Burmagan ajdodim xitoblaridan!
Qilichim tashlaymi
Sinmasdan burun...
Qattol qilichiga tegmay jarangi?
Qo'qonmi, Marg'ilon

va yoki Jizzax...
Janggoh etagida tugamay jangi?
Sanchaymi
Har bitta go'daklarimni,
Vahshiy bir askarning milliy tiyg'iga?
Ko'yilgin ilaymi
Ko'kaldosh, Ko'kcha...
Masjiddin to'rida turgan tug'iga?
O'taymi
Pok muslim, toza muslima
Bobom yo momomning qabrinu buzib?
Yerga urayimni yalovlarimni
Onam tumorini uzganday uzib?
Ketayimni yana
Yuz yillar nari,
Peshonamga la'hat tamg'asin bosib?
O'ldiraymi
gul-gul farzandlarimni
Surgunga jo'natib,
Dorlarga osib?!
Qarab turayimni
Suvrati a'yon,
Sotqin siyog'iga jimgina boqib?
La'natlaymi
Cho'lpon, Usmonlarimni,
Qodiriy kitobin o'tlarga yoqib?!
Buzayimni
Xiva, Buxoro Arkin,

KISHAN KIYMA!

Ming yillik minora havozalarini?
Bir dag'dag'a qilsang,
Ochib beraymi
Toshkent yo Samarqand darvozalarini?
Yerga ko'mayimni,
Osmonni ochgan
Nasta'liq, shikasta imlolarimni?
Buzilgan qasringga
To'laymi xiroj -
Ipag-u paxtarni, tillolarimni?
Omi deb kulaymi
Daholarimdan,
Berishsa - ko'zining yog'igacha yeb?
Or qilaymi xalqim,
Ona tilimdan,
"Shuyam millatni deb, shuyam xalqmi deb?!"
Bo'shatib beraymi
Madrasalarini,
Yov bostirib kelsa - otxonalarga?!
Almashib beraymi
Masjid, madrasa,
Sajdagohlarimni butxonalarga?!
Yana nima deysan,
Nima istaysan,
Yolg'on, fitnalardan bezmadingmi hech?!
O'nashma
Millatning g'ururi bilan,
Millatning Nomusi, Oridir - bu Erk!

Ona degani bu - Ona tilidir!
Va butun bir xalqning boridir - bu Erk!
Jonini jahonga
Jon deb ulashgan
Ulug' bir Onamiz - shu Vatan haqqi,
Kelsang,
Odamday kel! -
Bag'rimiz ochiq,
Non haqqi, tuz haqqi, jon-u tan haqqi!..
Istibdod sirtmog'in
Bo'ynimga solmoq -
Bo'lsa agar qasding,
Umidingni uz!
Koinot qalbidan
Porlab turibdi
Bugun O'zbek degan munavvar bir So'z!
Qo'rqitma!
Qalbimdan qo'llaringni tort!
Katta Yo'lga chiqib bo'lgan Karvonimiz!
Asli sen qo'rqasan!
Chunki Ishq bilan,
Bir buyuk qalb bo'lgan O'zbekistonimiz!
Bir buyuk xalq bo'lgan O'zbekistonimiz!

Zebo MIRZO

Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ulg'onsen!

Abdulhamid CHO'LPON




Boshlanishi 1-sahifada

— **Jadidlar murakkab bir davrda maydonga chiqdilar. Ularni qo'llab-quvvatlaydigan, g'oyalari tatiq etishga yordam beradigan kuchlar nihoyatda oz edi. Bir tomondan qadimchilar qarshi turgan bo'lsa, bir tomondan chor va sovet hukumati ularni yo'q qilish payida bo'ldi. Shunday qiyin vaziyatda ham ular maqsadlari yo'lida chekinmadilar, millatni uyg'otish, yurtni ozod qilish, xalq tafakkurini yuksaltirish yo'ldan dadil bordilar. Yurtboshimiz ko'pdan beri ziyolilarimizdan jadidlarga xos ana shunday dadillik, qat'iyat va ezgu tashabbuslarni kutayotganliklarini ta'kidlab kelmoqda. Bunga ziyolilarning javobi qanday bo'lmog'i kerak, deb hisoblaysiz?**



“UYG'ON,”



Munojot YO'LCHIYEVA,
O'zbekiston Qahramoni:

qalbni uyg'otishga xizmat qilishimiz lozim.

Jadid bobolarimizning biz – ziyo ahliga mayoq deb ko'rsatilayotganida shunday ajib hikmat bor. Ularda ham ilm-ma'rifat, ham millatparvarlik, ham san'atsevarlik, ham zamonaviylik mujassam edi. Birgina misol, Abdurauf Fitratning musiqa ilmi haqida yozgan asari milliy

– Xalqimizning ardoqli onaxon san'atkori Lutfixonim Sarimsoqovaning “Uyg'on, bolam” degan qo'shig'i bo'lardi. Demak, farzandlarni alla aytib uxlatishgina emas, balki uyg'otish ham bizning burchimiz ekan. Bugun har qachongidan ham bu borada o'zimizni qiynab, o'zimiz bedor bo'lib, tafakkur va

musiqa nazariyasi uchun muhim manba ekanini soha mutaxassislari yaxshi bilishadi. Musiqa nazariyasini o'rganishni asr boshida aynan Fitrat domla boshlab berdi. Milliy musiqa va maqom deganimizda, albatta, ko'z oldimizda eng avval Yunus Rajabiy siymosi g'aydalanadi.

Ustozning maqomli mehnatlari tufayli ilk bor “O'zbek xalq musiqasi” nomli olti jildlik Shashmaqom antologiyasi tuzilgan. Yunus Rajabiy har bir tinglagan musiqiy asarini, hajmi xoh katta, xoh kichik bo'lsin, bir eshitishdayoq yodlab olgan. O'tkir zehni, nihoyatda kuchli quvvai hofiza va milliy musiqaga bo'lgan cheksiz muhabbat tufayli u kishi shunday ulkan ishni amalga oshirgan. Milliy musiqamizni, maqomlarimizni o'rganish uchun yetarli shart-sharoit bo'lmagan davrda ham ular fidoyilik ko'rsatishgan. Bugun Yurtboshimiz tomonidan maqom san'atiga berilayotgan e'tiborni sohaning asl ustalari bir paytlar orzu qilishgan bo'lsa, ajabmas. O'z milliy san'atini qadrlagan xalq o'zligini taniydi. Bunday xalqni yengib bo'lmaydi. Zotan, jasorat, mardlik, vatanparvarlik tuyg'ulari nafaqat qondan qonga, balki milliy kuylar va qo'shiqlar orqali ham avloddan avlodga o'tadi.



Erkin A'ZAM,
O'zbekiston xalq yozuvchisi:

bo'yinbog', qo'l ko'krakda, “janoblarining otgan o'qlari”, “labbay, xo'jayin”... Ziyoli deganlari yakkash ko'p-ko'p kitob xatm qilgan qo'sha-qo'sha diplomli azamat emas, o'zidan, shaxsiy manfaatidan ortib o'zgalarga beminnat qayishadigan olijanob, el boshiga ish tushganda panapanani qidirmay, hech bo'lmasa “dili bilan qarshi” tura oladigan mard va fidoyi zot degani. Ana shundaylar, Vatan taqdiri, millat erki uchun kuyib-yonmoqqa tayyorlar ko'pni

– Ziyoli atalmoqdan faxrlanamiz, ziyoli ko'rinmoqqa intilamiz, ammo ziyolilikning yukidan qochamiz, jamiyatga mas'ul bu toifaning zimmasidagi vazifalarni esdan chiqarib qo'yganmiz. Tepadan buyurilsa yoki biror ilinj bilangina vatanparvarga aylanamiz, minbarlarda o'tli xitoblar qilamiz, boshqa vaqt esa – qora kostyum-shim,

oramizda? Ro'yxat qilmoqqa qo'rqasiz... Lekin yaqindagi bir holatdan mening shubhanok ko'nglim bir gaz o'sdi desam bo'ladi. To'g'ri, Mustaqillikka chiqqanimiz o'ttiz yillar mobaynida biz bunaqa xuruj va hurishlarni ko'p ko'rdik. Shunday chog'larda milliy matbuotimizni ishga solib, “To'ytepadan nari o'tmaydigan” jaydari po'pisalar bilan kifoyalanardik. Hay, shunchaki hurdi-qo'ydi, kasbi shudir-da, deb orqayin bo'lib yuraversangiz, sekin-sekin akillashga, vovullashga o'tadi, bu ketishda bir kun tashlanib qolishi ham hech gap emas. Astag'firulloh! Bu safar shimol tarafdin yana uvlash eshitilganida bir guruh ziyolilarimiz ijtimoiy tarmoq orqali shunday otashin yadillik bilan qarshi chiqishdiki, shu o'rinda ulardan ba'zilarining nomini qayd qilmay o'tsam aslo insofdan bo'lmas: Alisher Nazar, Gulnora Rahmon, Rasul Kusherboyev, Muhrim A'zamxo'jayev, Shahnoza Soatova, Zafar Solijonov, Bobur Bekmurodov, Kamoliddin Rabbimov, Hamid Sodiq, Jontemir, Ahtamquli... Yodimda qolgani shular. Aslida yana bir qancha, ko'p!.. Ko'nglim tog'day o'sdi, yoronlar, bor bo'ling, ta'zim va tahsin sizlarga! Boz ustiga deng, o'sha kunlari bilakdor vazirliklarimizning vazmin, ammo qat'iyatli chiqishlari – xayriyat! Uyg'onibmiz, janoblar, uyg'onaypmiz... O'ziga shukr!



Yodgor SA'DIYEV,
O'zbekiston xalq artisti:

o'zimga ko'p beraman. Mahmudxo'ja Behbudiyning “Teatr bu ibratxonadir”, degan purma'no ta'rifi bu savolga eng to'g'ri javob deb bilaman. Xalqimizga ibrat bo'ladigan asarlar yaratib, uni taqdim etish teatr sohasi vakillarining burchidir. O'zbek teatrlarining ilk namunalardan bo'lgan “Padarkush” dramasi ham o'qimagan bolaning holi ibrat qilib ko'rsatilgan. Mana, gap qayerda? Tomoshabing nima yaxshi, nima yomonligini oyna qilib ko'rsatmoq teatrning vazifasidir.

– Muhtaram Prezidentimizning madaniyat va ma'naviyat sohasi uchun qilayotgan sa'y-harakatlari biz ijodkorlarni hamisha ruhlantiradi. O'z o'rnida, yaratilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlarga yarasha bizdan ham munosib javob kutishlari tabiiy. Shavkat Miromonovichning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida aytilgan ikkita tushuncha diqqatimni tortdi. Bular “ijtimoiy dunyoqarash” va “madaniy saviya”. Barcha rahbar-yetakchilarda bu ikki xususiyat bo'lishi alohida ta'kidlandi. Bundan bir asr muqaddam jadid bobolarimiz millatda aynan shu ikki xususiyatni ko'rishni istagan edilar. Bugun ham bu istak dolzarbligini yo'qotmagani bizni o'ylantiradi. Millatimizning ijtimoiy dunyoqarashi va madaniy saviyasini oshirishga bevosita biz – madaniyat ahli javobgarmiz. Xalqimiz kino va teatri, qisqa qilib aytganda, tomoshani xush ko'radi. Ammo tomosha shunchaki ularning vaqtini o'g'irlashga emas, fikrlashga, xulosa qilishga turtki berishi kerak. Ayniqsa, bugun internet va ijtimoiy tarmoqqa vaqtini behuda o'ldiruvchi mashmashalar ko'payib ketgan bir davrda biz san'atkorlar katta maydonga chiqishimiz zarur. Biz bu maydonni berib qo'yishga haqqimiz yo'q. Jadidlar xalqimizni uyg'otish uchun nega teatrdan foydalandilar? Shu savolni



Xurshid DO'STMUHAMMAD,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi:

ERTANGI KUNIMIZ uchun har qachongidan zaruriyatga aylanib bormoqda. Vatanimiz va vatandoshlarimiz Yangi O'zbekistonni bunyod etishga kirishganlariga, Uchinchi Renessansdek oliymaqom marrani ko'z ostiga olganiga bor-yo'g'i yetti yil bo'ldi. Yurtimizda yangilanish simfonyasi biron lahza jaranglashdan tinmayapti.

– Jadidchilik harakati-qadriyatlarini bugungi orzu-niyatlarimizga vobasta qilish davlatimiz Rahbari rahnamoligida olib borilayotgan ma'naviy, mafkuraviy va hayotiy harakatning hamovoz, hamohanglikdagi davomi sifatida jaranglamoqda. Birinchidan, ma'naviyat va ma'rifat tushunchasi insonning har bir qadami, har bir lahzasida namoyon bo'ladi, uni yetaklab yuradi, boshqaradi. Bu sehrli va qudratli tuyg'uning qamrovi, miqyosi shu qadar keng va bepoyonki, har bir insonning mutlaqo botiniy-ruhiy dunyosi uchun nechog'li ahmiyatli bo'lsa, oilaning, jamiyatning va davlatning ham manfaatlariga shunchalar chambarchas bog'lanib ketadi. Shu boisdan ham muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutqida g'oyatda jonfidolik bilan tilga olingan mulohazalar, ilgari surilgan g'oya va takliflar, mashvarat o'rnida izhor etilgan istaklar yurtdoshlarimiz, millatdoshlarimizning har birining ong-u tafakkuriga yetib borishi, ularning dunyoqarash-u hayotiy tutumlari-qadriyatlariga aylanishi yo'lida qancha sa'y-harakat ko'rilsa, shuncha oz deb o'ylayman. Yana bir haqiqatni nazardan qochirmaylik. Nima sababdan ayni shu pallaga kelib, jadidchilik harakatiga bu qadar katta e'tibor qaratildi? Kimlarningdir nazarida, bu kutilmagan, hatto favqulodda yangilikdek taassurot qoldirmoqda. Fikrimcha, unday emas, balki jadid ota-bobolarimiz tarixiga e'tibor, ularning misli ko'rilmagan fidoyiligi, jasorati bizning BUGUNIMIZ,



Bahodir ODILOV,
“O'zbekfilm” davlat studiyasi direktori:

Yurtimizda ham 2017-yildan boshlab milliy kinematografiya bo'lgan e'tibor o'zgardi, yoshlarga imkoniyat berildi, moddiy tomonlama rag'bat kuchaydi. Tariximiz haqida, buyuk ajdodlarimiz haqida badiiy va hujjatli filmlar suratga

– Men o'zbek kinematografiyasining tamal toshini qo'ygan Xudoybergan Devonovni kino sohasidagi chin jadid deb bilaman. San'atlar ichida eng yoshi bo'lsa ham, kino boshqa turlarga qaraganda ancha ommabop ekanligi barchaga ma'lum. Bugun kino shunchaki tomosha emas, ma'lum bir davlatning mafkura quroli, targ'ibot vositasi vazifasini ham bajarayotgani haqiqat.

olindi. Tarixiy mavzuda film suratga olish an'anasi deyarli unutilayotgan edi. Prezidentimizning sa'y-harakatlari bilan milliy kinochilgimizdagi bu kemtik tuzatildi. Hozir yuksalish bosqichida desam, mubolag'a bo'lmaydi. “Islomxo'ja”, “Avloniy”, “Qo'qon shamoli”, “Is'hoqxon Ibrat”, “Muqimiy” kabi yaqin davrimizda yashab o'tgan ma'rifatparvar va jadid bobolarimiz hayotiga bag'ishlangan lavhalar kinoekranda aks ettirildi. Yurtboshimiz kino sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar davom ettirilishini ta'kidlab o'tdilar. Xususan, “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o'tmishiga bag'ishlangan 50 ta badiiy film yaratish bo'yicha farmon loyihasi tayyorlanayotgani va shu asosda tarixiy filmlar yaratish dasturi ishlab chiqilishi ham quvonarli voqea. Kino san'atining nafaqat ijod, balki iqtisodiyot tarmog'i ekani, bu ikki yo'nalish o'zaro uyg'un rivojlanishi lozimligini alohida ta'kidladilar. Yoshlarimizga ajdodlarimizning kim ekanligini tanitish, ularning dunyoqarashini ma'rifatparvar bobolarimizning g'oyalari bilan to'yintirish uchun eng yaxshi vosita bu kino san'atidir. Shunday ekan, biz kinoijodkorlarning asosiy vazifamiz bitta: faqat va faqat xalqimiz uchun manfaatli bo'lgan filmlar suratga olish!



Nazar ESHONQUL,
yo'zuvchi:

borsa, o'z davrining hodisasi sifatidagina ahmiyatli bo'lib qolaveradi. Lekin jadid bobolarimiz ko'targan masalalar, ularning maqsadlari, orzulari, intilishlari bu o'tmish emas. Biz hali hanuz ularning g'oyalari ehtiyojni sezib turibmiz.

Chunki bu harakat nafaqat rasmiy-siyosiy mustaqillikning emas, millatning har tomonlama, siyosiy, fikriy, ilmiy, madaniy, iqtisodiy, ma'naviy ravnaq etishi yo'lidagi harakat va g'oyalari edi. Bu borada bir narsaga e'tibor qaratishni istardim. Garchi tarixchilar bu harakatni XIX asrning 70-yillaridan boshlangan deb baholasa-da, bu harakat Dukchi eshon qo'z'olonidan so'ng haqiqiy g'oya sifatida mukammallashdi. Pulemyot, to'plarga qarshi pashaxa va ketmon ko'tarib chiqqanlar bu g'oyani hayotiy va milliy ehtiyojga aylantirdi. Istibdodga qarshi Isyon qilgan bobolarimiz qanchalar jasur bo'lmasin, baribir zamonaviy qurollarga qarshi o'roq va bolg'a ko'tarib

chiqish – bu harakatning mukammal emasligidan darak beradi. Chunki zamonaviy tamaddun odamdan nafaqat jasurlikni, balki shu bilan birga tafakkur va bilimni ham talab qiladi. Tafakkur va bilimni esa faqat ma'rifat va bilim orqali o'zlashtirish mumkin edi. Qanchalar jasur bo'lmasin, bilim bilan qurollanmagan millat tarix sahnasida faqat mag'lubiyat alami bilan yashashga mahkum edi. Bu saboq jadidchilik g'oyalari poydevori sanaladi. Ular millatni ma'rifat, ilm-fan, idrok bilan qurollantirishni istashdi, zero, bilim, ma'rifat istibdod va qoloqlikning har qanday ko'rinishiga qarshi yagona qurol edi. Buni ular amaliyotda isbotlashdi. Ular ochgan maktablarda bu harakatning amaliy ifodasi bo'lib, juda katta oqim o'sib chiqdi. Qisqa davrda butun boshli, keyinchalik millatning ilm-u fani, madaniyati, siyosati, iqtisodiy boshida turgan allomalar ana shu jadidlar maktabida ta'lim olishgan. Hamza, Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Oybek, Akmal Ikromov, Abdulhay Tojiyev, Salimxon Tillaxonov, Qayum Ramazon, Bahrom Haydariy, Mannon Uyg'ur, Subutoy Dolimov, birinchi o'zbek jurnalist ayoli Nozimaxonim, Turkiston ilm-fani, iqtisodini G'arb fani va iqtisodiy bilan birmuncha yaqinlashtira olgan Germaniyada o'qib kelganlar yoki o'qishga ketganlarning deyarli aksari jadidlar maktablarida ta'lim olishgan. O'rta Osiyoda san'atdagi, tafakkurdagi, siyosatdagi, imdagi inqilobiy o'zgarishlar boshida ana shu jadid maktablarida o'qiganlar turadi. Bu ro'yxatni davom ettirish mumkin. Agar imkon berilganda jadid maktabida o'qiganlar, payti kelib, Turkistonni taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shgan bo'lardi. Men shunday deb o'ylayman. Ular XX asrda yurtimiz taraqqiyotiga barcha sohalarda munosib ulush qo'shganlardan sanaladi.

– **Jadidlardagi vatanparvarlik hissi bizga yetishmayotganday. Ular har qanday ezgu tashabbusni millat manfaati uchun amalga oshirdilar. Aynan vatanparvarlik, yurtga bo'lgan chinakam muhabbat tuyg'usi ularga hamisha kuch va turgak bo'ldi. Yoshlarimizga vatanparvarlik namunasi o'laroq jadidlarni o'rnak qilib ko'rsatish, ularga bu tuyg'uning mohiyatini chuqur anglatishda qanday yo'ldan borishimiz to'g'ri bo'larkin?**



Hasan XALILOV,
Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i:

– Jadidlar haqida so'z ketarkan, avvalo, ular o'z xalqining ma'naviy himoyachisi ekanligini esda tutmoqlik lozim. Chunki yurt qadriyatlarini, millat sha'ni himoyasiga o'tlangan har bir inson birinchi navbatda kuchli vatanparvar bo'lmog'i shart. Ulardagi mardonavorlik va shiddat, kurashuvchanlik va yuksak g'oyalar Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari qalbidan vatanparvarlik, yurt taqdiriga daxldorlik hamda buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz singari sadoqat bilan xizmat qilish tuyg'ularining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Chunki Vatan himoyasi, vatanparvarlik kabi tushunchalar shunchaki chiroyli gaplar emas, balki qon bilan, jon bilan isbot qilinadigan muqaddas burchdir. Bu millat oldidagi mas'uliyatni har doim, har soniya his etib yashash demakdir. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan bu muqaddas meros yurtimizning bugungi himoyachilari qalbidan ham sobit o'rinishgan. Ta'kidlash o'rinni, barcha soha vakillari qatorida Mudofaa vazirligi tomonidan ham kelgusida ma'rifatparvar jadid bobolarimizning ma'naviy merosini kengroq o'rganish, ularning jasorati va qahramonliklarini harbiy xizmatchilar va yoshlarimiz ongiga singdirish borasida bir qancha maqsadli ishlarni amalga oshirish tizimli tarzda belgilab olindi.



BOLAM!”



Qiyom NAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor:

barkamol va raqobatbardosh avlodni voyaga yetkazish strategiyasining nafaqat joriy yil, balki kelgusi

– Prezidentimizning nutqlari “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak”, deb nomlangani aslo bejiz emas va bu mazkur hujjatning nafaqat bugungi kun, balki kelajakka yo’nalganini ham anglatadi. Ayni paytda bu, ma’ruzaning jamiyatimizda yangi ma’naviy makonni yaratish, g’oyaviy

yillardagi faoliyat uchun ham tayanch hujjatlardan biri sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki bugungi kunda mazkur yo’nalishtagi ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ushbu sohaning maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli ishlar bilan bog’liq faoliyat samaradorligini ta’minlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda. Bu borada ma’naviyat sohasidagi qonun ijodkorligini yangi bosqichga ko’tarish, milliy g’oyani rivojlantirish konsepsiyasi va dasturini ishlab chiqish bilan bog’liq yo’nalishtagi faoliyatni tizimli tashkil etish zarur. Qonun ijodkorligi bilan bog’liq birinchi yo’nalishtagi ishlarni tizimli tashkil etish zarurati shundaki, davlat siyosati, uning har bir yo’nalishi qonunlarga tayanishi, bu borada ham huquqiy asoslarning mustahkam bo’lishi zarurligi davlatchilik tarixida isbotlangan aksiomalardan biridir.

Erkin A’ZAM:

– Shukur, yurt tinch, vatan osoyishta, bugun och ajalga ko’krak tutib jasorat ko’rsatmoqqa hojat yo’q. Bo’lmasa, nega men nihoyati bir nobakorga qarshi fikrini dadil yozib chiqqan besh-o’nta vatandoshimiz nomini tutib bu qadar hayajonga tushyapman? Ular favqulodda bir qahramonlik ko’rsatgani yo’q-ku? Nima desangiz deng, balodan nari deb hamma jon vahmida in-iniga kirib ketgan, vaziyat mavhum, qaltis bir choqda chiqib dangal haqiqatni aytgan kishini men uncha-muncha qahramondan kam bilmayman. Negaki, uning ham hayoti qil ustida, bu qilmishi uchun nimalar kutayotganini u hali bilmaydi... Shunday, zamon qahramonlik, jasorat kabi tushunchalarni o’zgartirib yubordi. Bugun tirik vijdon bilan kun ko’rmoq ham hazilakam ish emas. Vijdon hissi esa ziyolilikning bosh belgilaridan. Shu “belgi” nega bo’lmasa necha o’n yillar mobaynida sukutda, karaxt yotdi? Chunki uning o’rnini jon vahmi – qo’rquv, zamonasozlik, bir parcha non ilinji egallagan edi. Oqibatda chinakam ziyolilik mohiyati chalkashib, shu da’voda yurganlar ob-havoga qarab ish ko’radigan qo’rqoq bir mo’mintoylarga aylanib qolgan.

Nazar ESHONQUL:

– Jadid bobolarimiz barcha ishlarni millat, vatan, imon nomidan qilishgan. Ular vatan va millat ravnaqi uchun kurashgan. Ochgan maktablari, gazetalar, teatrlari faqat bir narsani – millatni g’o’fillikdan qutqarib, taraqqiyot sari yuz burishini istashgan. Bu yo’lda barcha narsalarini – molini, jonini, iste’dodini ayashmagan. Ular uchun eng muhim maqsad – millatni uyg’otish, taraqqiy ettirish edi. Bu harakat, aksar olimlar ta’kidlagandek, faqat G’aspirali yoki chetdan kelganlar ta’sirida paydo bo’lmagan. Bu harakat XIX asrdagi ozodlik harakati mozori ustidan o’sib chiqqan.

Ular panshaxa va belkuraklar bilan zamonaviy to’plarga qarshi borgan. Bu kurashchilar qanchalar jasur va mard bo’lishmasin, ularning qo’ldagi qurollar to’plar va mitlqlar oldida o’ta ibtidoiy edi. Shuning uchun ham yengilishdi. Yengilish sabablarining asosiyi millatning zamonaviy taraqqiyotdan uzilib qolgan, qurollarining ibtidoiyliigi, zamon ilm-fani yutuqlaridan bexabarligi, millatning nodonlik va bid’at botqog’iga o’ralashib qolgan edi. Bu jadiclarni larzaga solgan. Shuning uchun ham ular tish-tirnoq’igacha zamonaviy qurollar bilan turgan bosqinchilarga qarshi ilm-fanni qurol qilish kerakligi, faqat ilm-fan har qanday qurollarni yenga olishini his qilishgan.

– Muhtaram Prezidentimiz o’z nutqida “...bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o’n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart”, deb alohida ta’kidladilar. Shunday ekan, millat ma’naviyati masalasida barcha ziyolilarning yakdilligi suv va havoday zarur. Xalqimizda tarbiyali, esli-hushli kishilar haqida “ma’nili odam ekan”, degan ta’rif ko’p ishlatiladi. Ma’naviyatli shaxs — bu ma’nili odam degani. Xo’sh, ma’naviyat sohasida qanday o’zgarishlarga ehtiyoj bor? Ma’nili yoshlarni tarbiyalash uchun nima ishlar qilishimiz kerak?



Xurshid DO’STMUHAMMAD:

– Prezidentning Kengash minbaridan yangragan nutqida bir-biridan muhim va o’ta dolzarb vazifalar belgilab berildi. Ko’rilgan masalalar nafaqat ma’naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san’at namoyandalari, balki mamlakatimizdagi barcha soha va qatlam vakillari, xususan, ziyolilar tomonidan zo’r qiziqish bilan qarshi olindi. Ushbu fikrning mantiqiy davomi haqida so’z borar ekan, jadicilik harakatini, jadidona tafakkur tarzini umumxalq maqsad-maslagiga aylantirishning birdan bir va yagona chorasi – bundan yuz yil burun voqelikka aylangan, biroq beshikdali chog’laridanoq qirg’inga uchragan, uvol bo’lgan buyuk uyg’onish silsilasidan munosib xulosalar chiqarishdir! Saboq olmoqlikdir!

Bu borada e’tiborsiz mavzuning o’zi yo’q. Zero, ma’naviy-ma’rifiy tafakkur tarzini yangilash, muntazam takomillashtirish, shu orqali kishilarimizni, xususan, yoshlarimizni milliy va umumbashariy g’oyalar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan omillar ko’p. Jumladan, mutolaa, san’at va madaniyat yangiliklaridan boxabarlik muhimligini alohida ta’kidlash mumkin. Buni qarang, davlat Rahbari teatr tomoshasining ahamiyatiga alohida urg’u bermoqda. Yurtimizda “Teatr – ibratxonadir” degan hikmat yangraganiga qariyb 100 yil to’lmoqda. Bir asr kichik muddatmi? Lekin qanchalar jonfidolikka aylangan o’sha bir og’iz oltinga teng jumlaning qimmatini, dolzarbligi bizning zamonamizga kelib 100 karra oshsa oshdiki, zarracha ozaygani yo’q.

Qiyom NAZAROV:

– Bugungi kunda ma’naviyat sohasida ham qonun ijodkorligini kuchaytirish, O’zbekiston Respublikasining ma’naviyat sohasidagi siyosatining asoslariga doir “Ma’naviyat va ma’naviy faoliyat to’g’risida” qonunni ishlab chiqish davrimizning eng muhim va ob’yektiv zaruratlaridan biriga aylandi. Ayni paytda, bu borada ushbu qonun davlat siyosatining bu jabhadagi faoliyati, yangilanishlar va xatti-harakatlar strategiyasining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashini ham hisobga olish darkor. O’z navbatida, bu yaqin kelajakda butun mamlakatimiz fuqarolarining ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi hayoti, faoliyati va turmush tarzini ifodalaydigan yaxlit hujjatlar majmui – “Yangi O’zbekiston jamiyatining axloq kodeksi”ni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko’rish lozimligidan dalolat beradi. Ayni paytda bunday kodeks yaratilishi O’zbekistonda ham BMT tomonidan qabul qilingan 5 ta axloq kodeksiga mos ravishda faoliyat boshlanganini anglatadi. Bugungi kunda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g’oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama anglash, radikalizm, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, aqidaparastlik, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes kabi tahdidlarga qarshi samarali kurash olib borish o’tkir zaruratga aylandi. Shu bilan birga, aholi, ayniqsa yoshlarimizni turli buzg’unchi g’oyalar ta’siridan asrash, ma’naviy barkamol, yetuk ziyoli va tahdidbardosh avlodni tarbiyalash vazifalari ham nihoyatda dolzarblashdi. Ushbu yo’nalishta Milliy g’oyani rivojlantirishning reideologik konsepsiyasi va uni amalga oshirishga doir Milliy harakat dasturini ishlab chiqish zarurati ham ana shu ob’yektiv ehtiyoj bilan belgilanadi.

Yodgor SA’DIYEV:

– Ma’naviyat, eng avvalo, oilada mavjud bo’lishi kerak. Inson oilada olgan tarbiyasini ko’chada namoyon etadi. Agar oilada johillik hukm sursa, bola ham johil bo’lib ulg’ayadi. Oilada ota-ona ma’naviyatli bo’lsa, farzand ham ma’nili inson bo’ladi. “Qush uyasida ko’rganini qiladi” maqoli bejiz aytilmagan. Yosh avlodni san’atga nisbatan didli qilib tarbiyalash lozim. Bugun ommaviy madaniyat xuruji avj olgan chog’da did tanqisligi xavfi ortayotgani achinarli. San’atning qaysi sohasini olmaylik, muntazam yangi ijod mahsullari yaratilyapti. Lekin yoshlarimiz qay saviyadagi san’atdan bahramand bo’layotganiga ko’pchilik ziyolilar befarq. Didsizlikning jabri bizdan keyingi avlodning bo’yniga muhr bo’lib tushgani yomon. Inson ilk tarbiyani oiladan, keyin maktabdan oladi, lekin kitob va san’at asarlari uni qaytadan tarbiyalaydi. Zero, kitoblar, filmlar, spektakllar insonga o’zini kashf etish imkonini beradi. Jadidlar millatning ahvoli o’ziga ko’zgu qilib ko’rsatish uchun teatrlar tashkil qildilar. Biz bugun jadiclarimiz kabi har jabhada xalqimizni uyg’otadigan, yoshlarimizni vatanparvarlikka chorlaydigan, fikr va ongiga ta’sir ko’rsatadigan yaxshi asarlar yaratishimiz lozim.

Nazar ESHONQUL:

– Jadidlar ilm-fan millatning qudratiga aylansa, u millatni yengib bo’lmasligini anglashgan. Agar ilm-fan bugun millatimizning qudratiga aylansa, bizni hech qaysi kuch yenga olmaydi. “Baxtsiz kuyov”, “Padarkush” va boshqa badiiy jihatdan ancha sodda bo’lgan pyesalar va adabiy asarlarda, maqolalarda biz shunga guvoh bo’lamiz. “Padarkush” ni eslav. O’qimagan, g’o’fillikdan qutulmagan bola o’zining g’o’fil bo’lishiga sababchi bo’lgan o’z otasini o’ldirib qo’yadi. G’o’fillik, nodonlik – bu millatni o’ldirish bilan baravar illat. Nodonlik bor joyda – millat ko’karmaydi. U o’z o’tmishining ham, ildizining ham, asliyating ham kushandasiga aylandi. Yoki “Baxtsiz kuyov”ni oling. Millatning nodonligi ikki yoshni o’ldiradi. Demak, g’o’fillik va nodonlik millat kelajagining ham kushandasi. Oddiy voqealardan ana shunday hikmatona xulosalar chiqarishgan. Shuning uchun ham millat taraqqiy etishi uchun eng avvalo o’zining nodonligidan qutulishi kerak. Uni nodonlikdan faqat zamonaviy ilm-fan qutqaradi. Ma’rifat qutqaradi.

Bahodir ODILOV:

– Muhtaram Prezidentimiz nutqlarida bugungi kunda dunyo media olamida tele va kino seriallar jadal rivojlanib borayotgani, dastlab ko’ngilochar va maishiy mavzularda paydo bo’lgan seriallar bugungi kunga kelib, turli davlat va millatlarining muayyan maqsadlarini targ’ib etish vositasiga aylanayotgani haqida kuyunib gapirdilar. Darhaqiqat, xalqimiz televizorni eng ko’p ko’radigan “praym-taym” vaqtida xorijiy seriallarga katta o’rin berayotganimiz og’riqli masala. Albatta, milliy seriallar ishlab chiqarish bo’yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, bu yo’nalishta ijodkorlarimizni qo’llab-quvvatlash lozimligi ta’kidlandi. Lekin saviyali milliy seriallar yaratish uchun faqat kinoijodkorlarning o’zi kamlik qiladi. Yaxshi g’o’ya va asarlarga yaxshi seriallarga aylanishi mumkin. Shunday ekan, madaniyat va san’at vakillari, u xoh kinoijodkor bo’lsin, xoh yozuvchi, xoh rassom – barcha ijodkorlar o’rtasida muntazam hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish lozim deb bilaman.

– Jadidlar ma’naviy tanazzuldan chiqish uchun juda unumli konsepsiya tanlagan edilar. Konsepsiya amalga ko’chdi: zamonaviy maktablar, gazeta-yu jurnal ochishdi, teatr ochishdi, chet tilidan tarjimalar qilina boshlandi. Ma’naviy tanazzul jamiyatni johillashtiradi. Buni tarix isbotladi. Johil odamlar esa nafsdan o’zga yo’lni ko’rmaydilar. Bugun, oradan 100 yil o’tib shu konsepsiya yangi shaklda biz uchun juda zarurligi oydinlashdi. Jadidlar biz uchun “yo’l xaritasi” chizib berishgan. Ammo bir asr avvalgi “yo’l xaritasi”ning yangi formasini topish muhim. San’at, adabiyot va ilm-fan shu forma bilan yangi bir bosqichga chiqadi.

Bugun jadiclar konsepsiyasining yangi formasini topa olamizmi?



Hasan XALILOV:

– Keling, bu savolga javob o’rnida, o’zim faoliyat olib boradigan Mudofaa vazirligi tizimida qilinajak ishlar haqida ma’lumot bersam. 2024-yildan boshlab har yili vazirlik tizimidagi oliy harbiy ta’lim muassasalarini kursantlari va “Temurbeklar maktabi” o’quvchilari o’rtasida “Jadidlar” tarixiga oid Respublika Olimpiadasini tashkil etish; tarixchi-olimlar va taniqli ijodkorlar bilan hamkorlikda “Jadidlar – millat fidoyilari” mavzusida vazirlik qo’shinlarida 3 bosqichli tanlovlarni o’tkazishni yo’lga qo’yish; Qatag’on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda boshqa tarixchi olimlarning bevosita yordamida Mudofaa vazirligining harbiy qism va oliy harbiy ta’lim muassasalarida “Jadidlar qahramonligi” nomli tematik sinflarni tashkil etish kabi tadbirlar belgilab olindi. Shuningdek, vazirlik Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti tomonidan harbiy xizmatchilarimiz kundalik faoliyatida o’rganishi uchun oddiy va sodda ravishda yozilgan cho’ntak kitobchalarini Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi hamda Jamoatchilik kengashi tarkibida bo’lgan yozuvchi va shoirlar, olimlar bilan hamkorlikda tayyorlanib, qo’shinlarga tarqatilishi yo’lga qo’yiladi. Bu kabi amaliy ishlar samarasi, birinchi navbatda, harbiy xizmatchilarimiz va yoshlarimiz ongida buyuk ma’rifatparvar bobolarimizga nisbatan iftixor hissini shakllantirishga ko’mak bersa, ikkinchidan, ularning boy merosini chuqur o’rganish, targ’ib qilish, muhim xulosalarga ega bo’lishda asosiy rol o’ynashi shubhasiz.

Erkin A’ZAM:

– Yaqinda men tarixiy hujjatlar asosida jadiclar hayotidan hikoya qilgan kattakon bir asar qo’lyozmasini o’qib, hayratga tushdim; yo’q, kechagi kechmishlarimizni sira bilmam ekanmiz... Deyarli barining kasb-kori bor, deyarli barchasi o’ziga to’q, davlatmand. Ayshini surib yuraversa, biroq bir nima demaydi. Ammo ular tinch turolmaydi, bor mol-mulkiniki tikib, millat qayg’usi bilan yashaydi – el

ma’rifati, vatan erki, vatan taraqqiyoti uchun oxirigacha kurashadi. Ularning bu yo’lda qurbon bo’lishi, mahv etilishi ham bugun siz-u biz bilgan-eshitgandan ko’ra ko’p bora og’irroq, alamliroq kechadi. Bugungi kunning mantig’i bilan qarab, odam shunchalik ham tanti, anoyi bo’ladimi, deysiz va beixtiyor yon-atrofigizdan ana shunday jonfido “anoyi”larni qidira boshlaysiz. Hayhot!.. Ular hayotda o’zini kim deb bilgan, aytmayman, ammo tariximizdagi chin ziyolilar ana o’shalar bo’lgan.

Xurshid DO’STMUHAMMAD:

– “Agar hozir, – dedi Prezident, – “Qani, oxirgi bir oyda qaysi teatrga bordingiz, qanday yangi kitob o’qingiz?” deb so’rasam, o’ylaymanki, aksariyat rahbarlar xijolat bo’lib qolishi mumkin”. Men hech ikkilanmay, bu so’zlarni biz ziyolilarga, qolaversa, vatandoshlarimiz, millatdoshlarimizga qaratilgan achchiq iddao, tanbeh o’rnida qabul qilgan bo’lur edim. O’ylab ko’raylik, teatrga borish quruq tomosha emas, shunchaki vaqtini o’tkazish emas, balki teatrga borish – oilaviy, jamoaviy bayram, o’zgacha kayfiyat, o’zgacha ruhiyat demakdir. Teatr muxlisi bamosil sahnada kechayotgan voqealar ishtirokchisiga aylandi, o’sha mavzu-o’sha holatlar ishtirokchisi sifatida hayotga o’zgacha mulohazakorlik bilan yondashishga harakat qiladi. Bir oila davrasida bir teatr spektaklini tomosha qilish va uni muhokama qilish, ularning, farzandlarimizning bir umr yodida qoladi. Teatr o’g’il-qizlarimizning didini o’stiradi, hayotiy masalalarga mulohazakorlik bilan yondashishga ko’niktiradi. Inson sifatida yangilaydi. Yangilanishga moyil insongina boshqalardan o’n qadam oldinda borishga va odamlarni, jamiyatimizni o’zgartirishga qobil hisoblanadi.

Munajat YO’LCHIYEVA:

– San’at estetikasini hamma har xil qabul qiladi. Ammo san’at mahsulotini tovar sifatida biladigan mijoz uning qiymatiga qarab ko’rishi foydadan xoli emas. Tabiiylikdan xoli ijod mahsulini san’at deb bilish estetik did darajasiga bog’liq. San’at saroyiga odamlar ko’pincha san’atkorning sumbatinagina ko’rish uchun falon pul sarflab kirishadi. Konsert afishasiga “jonli ijro” degan yozuv qistirilmagan bo’lsa ham baribir kiraverishadi. Qo’shiqlar sifati, xorijdan “tarjima” ekanligi keyingi masala. Lekin san’atning qadri ikki tomon uchun ham sariq chaqaga olinmasligi og’riqli. Prezidentimiz tashabbuslari bilan o’tkazilgan Xalqaro maqom festivallarida xalqimiz chet

ellik ijrochilarning milliy qo’shiqlarini berilib tinglaganiga o’zim guvohman. Biror kishi tomosha joyidan erta chiqish haqida o’ylamagan. Chunki u yerda tirik san’at bor, tirik ijro bor. Shu jihatdan maqom festivallari xalq sayliga aylanib ketdi. Fonogrammada ijro etiladigan qo’shiqlar tomoshabin ko’zini aldaydigan sarob, shunchaki, usti yaltiroq, ichi qaltiroq. Bu “san’at” bilan dunyo ommasining e’tiborini tortish mumkin emas... Muhtaram Prezidentimizning maqom san’atiga bo’lgan yuksak e’tibori bu sohaga qayta jon bag’ishlayapti. Yoshlarimizni maqomga, milliy musiqa san’atiga oshno qilishimiz kerak. Millatning o’z tarixiy idzilarni unutilib qo’yishga haqqi yo’q.

Nazar ESHONQUL:

– Jadidlar ilgari surgan g’oyalar haqida o’ylaganimizda, ba’zan millat tabiati va nodonligi yuz yil avvalgidan juda kam farq qiladigan o’xshab tuyuladi. Bugun ham bolalarini zamonaviy ilm-fanga emas, pul sanashga o’rgatayotganlar yo’qmi? Yoki siyosiy mustaqil bo’lganimiz bilan biz ishlab chiqarishda, iqtisodda, ilm-fanda, texnologiyalarda hamon chetdagilarga qaram emasmizmi, biz ishlab chiqaruvchi, fikr va g’o’ya beruvchi emas, ilm-fanni yashash tarzimizga aylantirgan millat emas, shunchaki iste’molchi millat bo’lib qolmayapmizmi? Mabodo, faqat iste’molchi ekanmiz, unda biz jadiclar orzu qilgan miqyosdagi to’laqonli mustaqil ham emasmiz. Shu sababli jadiclar ko’targan Ma’rifatli millat hali ham kun tartibida turibdi. Faqat ma’rifatli, ilm-fan bilan to’yingan, uni hayotga tatbiq etgan, dunyoga ilm-fan yutuqlarini taqdim qilgan, iste’molchidan ishlab chiqaruvchiga, fikr oluvchidan, fikr beruvchiga, g’oyalarga muteliikdan o’zi g’o’ya beruvchiga aylangan millatgina tom ma’nodagi mustaqil millat sanaladi. Jadidchilikka, umuman, Uchinchi Renessansga bo’lgan ichki ehtiyojimiz ortida ham aslida shu istak yotadi. Shu sababli ham mamlakat Rahbarining jadicchilik g’oyalarining bugungi targ’ibotiga, uning mohiyatiga qayta-qayta e’tibor qilayotgani, qayta-qayta kun tartibiga qo’yayotgani bejiz emas. Bu e’tibor, bu xohishlar tagida millat ravnaqi, Vatan taraqqiyoti masalasi turibdi.



MUAMMO

Xuddi kechagidek yodimda. Toshkentning Eski shaharidagi tor ko'chalardan birida yashardik. Ziyolilar oilasi bo'lsa ham xonadonimiz jihozlari u qadar boy emasdi. O'sha paytlar qulog'imizga qo'shnimiz televizor sotib olgani haqidagi gap-so'zlar chalinib qoldi.

Bola emasimiz, juda qiziqdik. Bir kuni qo'shnimiz oilamiz bilan televizor tomosha qilishga chaqirdi. O'shanda ukam ikkimiz qanchalar hayajonlanib, hayratga tushganimiz hozirgidek esimda... bugun esa nevaralarimni uncha-muncha yangilik bilan hayratga solib bo'lmaydi. Ular texnikaning ichiga shu qadar sho'ng'ib ketishganki, istagan telefon, smartfon, kompyuter deganlarini bir zumda "o'zlariniki" qilib olishadi.

Ha, bugun farzandlarimiz uchun hech qanday axborot tanqisligi sezilmaydi. Ular har qanday rusumdagi telefon va kompyuter bilan bir zumda tillashib oladi. Hatto endi atak-chechak qila boshlagan bolakay ham telefonni "taniydi". Xo'sh, bunday holat yaxshimi-yomonmi?

Bugungi kunda hayotimizni smartfonisiz tasavvur qilish qiyin. Ammo bola telefonga bog'lanib qolmasligi uchun undan qanday qilib oqilona foydalanishni kattalar o'rgatishi kerak.

Bola maktabda yarim kun, ba'zan esa undan ham ko'p vaqtini o'tkazadi. Ota-onalar uchun bu fursatda bolaning xavfsizligi, darslar tugagach esa kechikmay uyga kelishi muhim. Maktabda telefon kerakmi? Bir tomondan, bola dars paytida telefonda lug'at yoki elektron kitobdan foydalanishi mumkin.

Mening boshlang'ich sinflarda o'qiydigan farzandlarim biz bilan bog'lanib turishi uchun maktabga simkarti GPS-soat taqib ketadi. Ularning smartfoni bor, lekin hali maktabga olib borishiga ruxsat bermayman, undan faqat uyda foydalanishadi.

Kichik yoshdagi bolalar o'zlarining vaqt va istaklarini nazorat qila olmaydilar, shu sababli ularni ota-onasi nazorat qilishi kerak bo'ladi. Xayriyatki, buning uchun juda ko'p vositalar mavjud. Masalan, hozirda maxsus dasturlar bolaning telefonda o'tkazadigan vaqtini chegaralash, ma'lum o'yin va dasturlar uchun alohida cheklovlar o'rnatish, kunning ma'lum qismi uchun telefon imkoniyatlarini qisqartirishda yordam beradi.

Suhrob FAYZ,
Toshkent shahri

yoshidagi farzandlarimizni bu balodan qanday muhofaza qilamiz? Umuman, muhofaza qila olamizmi?! Juda murakkab vaziyat. Bugun bu vaziyat nafaqat bizni, balki butun dunyo ahlini o'yantirayotgani sir emas. Albatta, har bir davlat o'z dunyoqarashi, tafakkur doirasidan kelib chiqib mavjud vaziyatga munosabat bildiradi. Masalan, ayni

Belgiya va Buyuk Britaniyada bu borada taqiqlash masalasi har bir maktabning kuzatish va vasiylik kengashlari qarori asosida qabul qilinadi. Xitoyda esa o'quvchilar ota-onaning yozma rozilgisiz maktabga telefon olib kirishi taqiqlanadi. Janubiy Koreya maktablarida mobil aloqa



TELEFON

BALO EMAS, BALOGARDONGA AYLANSIN!

Shubhasiz, bugun telefon nafaqat kattalar, balki bolalar uchun ham suv va havodek zarur matohga aylandi. Istagan odam bilan gaplashish, istagan ma'lumotni olish, hatto filmlar-u suratlarini tomosha qilish mumkin. Eng yomoni, ana shu istagan narsani topish mumkinligida. Chunki kattalar qo'l telefonda

foydalanishda yaxshini yomondan, zarurni nozaruridan bemaol farqlay oladilar, ya'ni o'zlari uchun muhimini tanlaydilar. Farzandlarimiz-chi? Bugungi kundagi eng og'riqli joyimiz, asosiy hadigimiz shu. Chunki nafaqat oilalardagi kattalarda, balki bog'cha yoshidagi bolalarda ham telefon-u planshetlar bor. Va ular bu qurilmalardan bemaol foydalanadilar. Ya'ni telefondagi yaxshi-yomon ma'lumotlar, maza-bemaza filmlar, kliplar, ko'ngilochar tomoshalarni ko'rishga imkoniyatlari bor. Demak, bugun telefon nafaqat qulaylik manbai, balki tarbiyaga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, bola psixikasining buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy vositaga ham aylanib qoldi. Shubhasiz, bu ota-onalarni, jamoatchilikni tashvishga soluvchi holat. Ana shu holatda biz maktabda o'qiydigan va maktab

paytda Bangladeshda maktab va kollej o'qituvchi va o'quvchilarining mobil telefonda foydalanishlari taqiqlangan. Avstraliya, Viktoriya, Tasmaniya hududlarida, Fransiya, Ispaniya, Chexiya kabi davlatlarda bolalarning mobil telefonda foydalanishlariga cheklovlar qo'yilgan.

Ta'lim majburiy bo'lgach, tarbiya ham majburiy bo'lishi kerak.

Cho'ntagida qo'ltelefon bilan darsga kirgan bolaning yonida bamiqli shayton o'tirgan bo'ladi. O'quvchining diqqati bo'linadi, xayoli qochadi, bu holat, albatta, uning o'zlashtirishini yo'qqa chiqaradi.

Bir kosa asalni bitta pashsha makruh qilganiday, ming yillik odob-axloq an'analarni bitta shu telefon buzaydi.

O'qituvchini mensimaslik, masxaralash, o'zaro bema'ni hazillar qilish bilan vaqt o'tkazgan "tolibi ilm" ertaga qanday qilib yuksak ma'naviyatli bo'lishi mumkin? Bu baloni qat'iy jilovlash shart!

Muhammadjon IBRAGIMOV,
Oltiariq tumanidagi 43-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

vositalaridan foydalanish qat'iy man etilgan.

Qo'shni davlatlar – Qozog'iston va Tojikistonda ham o'quvchi va talabalar maktab, kasb-hunar, o'rta ta'lim muassasalarida mobil telefon, peyjer, plener, planshet, smartfon, Ipad, Ipod modemlardan foydalanishlariga ruxsat yo'q.

Xo'sh, bunday taqiqlarning foydasi bormi? Bu masalada turli qarashlar bor. Chunki taqiqlar bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda. Lekin, shunisi aniqki, taqiq qo'yilgan joylarda ta'lim sifatida o'sish kuzatilmoqda. Shu o'rinda, yurtimizda bu borada qanday yo'l tutish ma'qul, degan masala ko'ndalang turgani rost gap. Bizningcha, ayni masalada tarbiya va ta'limda qanday aqidalarga suyanib ish ko'rish asosiy omil bo'lishi lozim. Zero, farzandining axloqli, mustahkam bilimli, e'tiqodli inson bo'lib yetishishini istagan har bir odam bugun biz tilga olgan masalani jiddiy o'ylab ko'rishi zarur, deb hisoblaymiz.

Gulchehra UMAROVA

NAZORAT QILISHNI UNUTMANG!

Bugungi kunda mobil aloqa vositalari hayotimizga chuqur kirib keldi. Deyarli har bir o'quvchi o'g'il-qizlarning qo'lida smartfon borligini ko'rishimiz mumkin. Uning yordamida bolakaylar atrof-muhit bilan aloqada bo'lib, ota-onasi bilan gaplashadi va bo'sh vaqtini u bilan o'tkazadi.

Biroq, shunday salbiy holat ham yuzaga kelyaptiki, o'smirlar mavjud imkoniyatlarni suiiste'mol qilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Maktablarda, ayniqsa, dars vaqtida telefonda foydalanish o'qituvchilar va umuman, ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan ma'qullanmaydi. Zamonaviy ta'lim tizimiga ko'ra, maktab o'quvchilarining telefon bilan tinimsiz aloqada bo'lishi nomaqbul hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham ko'plab mamlakatlarda maktabda telefonda foydalanishni cheklashni nazarda tutuvchi qoidalar joriy qilingan.

Fikrimizcha, bizda ham maktab o'quvchilarining dars paytida mobil telefonda foydalanishi borasida muayyan cheklovlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Shunday tartib o'rnatilsa, dars jarayonida bolalarning diqqatini bir yerga jamlab, sinfda berilayotgan o'quv-tarbiyaviy materialni o'zlashtirishi imkoni ortadi. Qolaversa, mobil aloqa vositalari aksariyat hollarda kichik ekran o'lchamiga ega bo'lib, bu hol vizual zo'riqishiga sabab bo'lib, insonning qomatini tik tutishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi tartib orqali ana shu zararli ta'sirning oldini olish ham mumkin. Maktab o'quvchilari turli rusumdagi telefonlardan foydalanishi ham sir emas. Ularning narxi va salmog'iga qarab, bolalar o'rtasida keskin tabaqalanish kabi salbiy holat yuzaga kelishining oldi olinadi. Bir so'z bilan aytganda, o'qish vaqtida mobil telefonda foydalanmaslik yoshlarda o'zining ustida qunt bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Bu masala yuzasidan ota-onalar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish juda muhimdir. Zero, yurtimizdagi har bir ta'lim tashkiloti bir vaqtning o'zida tarbiya maskani sanaladi.

Oydin ABDULLAYEVA,

Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Yaqinda xotininga telefon olish uchun bozorga tushdim. Ishlatilgan bo'lsa ham tuzukroq, muhimi arzonroq'ini izladim. Bittasi ma'qul bo'ldi, sotib oldim. Uyga kelib, ishlatib ko'ray, deb o'zimming simkartamni soldim. Qizig'i, telefonda sobiq egasiga tegishli hamma ma'lumotlar shundoq turibdi, o'chirilmagan, tozalanmagan.

Sotuvchining aytishicha, kollejda o'qiydigan qishloq qizi emish. Qizcha, g'orligi sabab, o'zining rasmlari-yu ma'lumotlarni o'chirib tashlashga aqli yetmagan, shekilli. Telefon xotirasini "tozaladim" va unga o'zimming akkauntimni joyladim. Achinarli joyi, internet nuqtasi yonishi bilan har xil besharm saytlardan reklama va xabarlar kela boshladi. Uyatdan o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Shoshgancha "Chrome" qidiruv va ko'rilgan saytlar tarixiga kirdim va beixtiyor astag'irulloh, deb yubordim! Sanoqsiz behayo saytlar ketma-ketligidan lol qolib, qo'llarim qaltirardi. Shoshib o'chirishga tushdim, bu ancha vaqtimni oldi. O'sha kimningdir arzandasi, ma'sumasi, qaysidir xonadonning bo'lajak kelini, bo'lajak bir ona haqida yomon gumonda bo'lmaslikka urindim...

Ertaga mening farzandlarim, ayniqsa, qizlarim ham balog'atga yetadi, hamma qatori ularning ham qo'lida telefon bo'lishini o'ylab, xavotirga tushdim.

Aziz ota-onalar, farzandingiz xoh o'g'il, xoh qiz bo'lsin, uni qattiq nazorat qilishni unutmang!

Akbarali MIRZAYEV,

Toshkent viloyati

MULOHAZA

"Jadid" gazetasi chop etilishi haqidagi xabarlarga ko'zim tushganda, buni zamona zayli bilan ochilayotgan yangi nashrlardan biri bo'lsa kerak, deb o'ylagandim, nashrning nomi Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon kabi jadid bobolarimizning dunyoga kelishi haqidagi mulohazalarga berilishimga sabab bo'lgandi.

Yangi 2024-yili eshitgan xushxabarlardan eng yaxshisi "Jadid" gazetasining ilk soni nashr etilgani va unga bog'liq ma'lumotlarning oydinlashgani bo'ldi. Yangi gazeta mustahkam poydevor – salkam yetmish yildan

beri qadrdon nashrimiz bo'lib kelgan "O'zbekiston madaniyati", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi va uning iste'dodli ijodiy jamoasi asosida tuzilgani yanada tahsinga sazovor. Gazetaning besh zabardast

homiylarini besh barmoqning birlashib, mushtumga aylanganida ham an'anaviylik bor. Yana xayolimga Abdulla Qodiriy va ulug' adibimiz asoschilaridan biri bo'lgan "Mushtum" jurnali keldi.

Oyina.uz kutubxonasi

NOM YAXSHIMI, NON?..



Yurtimizda jadidchilik harakati paydo bo'lishi, ular orasidan Turkiston o'lkasining ijtimoiy va madaniy hayotida atqoli arboblal yetishib chiqishida vaqtli matbuotning o'rni katta bo'lgani tarixiy haqiqat. Gazeta jamoaviy tashkilotchi hamdir. O'tgan asrning boshlarida paydo bo'lgan "Oyina", "Yer yuzi", "Turkiston" kabi o'nlab mahalliy nashrlar mudragan Turkistonda yangi romanlar, qissalar yozilishi, sahna asarlari, istiqol she'riyat dunyoga kelishiga turtki bo'ldi. Bunday nashrlar bo'lmaganida na "O'tkan kunlar", na "Kecha va kunduz" yozilar, o'lka shoirlari "qoshing, ko'zing"dan iborat g'azallar yozib yuravergan bo'laridim...

"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" nomi "Jadid"ga o'zgartirib ijtimoiy tarmoqlarda ancha shov-shuv qozog'adi va bu kutilmagan holat emas. Ayrim iddaolarga ko'ra, "O'zAS"ni saqlab qolish kerak bo'lgan va "Jadid" alohida chiqarilishi kerakligi, "O'zAS" bilan juda ko'plab xotiralar bog'liq ekani aytilgan. "Yetti yulduz birlashib, bitta oycha bo'lolmas", deganlari kabi adadi mingtalar atrofidagi o'nta gazetadan ko'ra bitta – o'n besh mingdan ziyod tirajli gazeta yaxshi emasmi? "Jadid"ning bosma hajmi ham katta ekan. Turli gazetalarda sochilib yotgan yaxshi maqolalar, asarlarni bir nashrdan topish ham o'ng'ayroq.

"Jadid" gacha chiqqan gazetasining ikkala nomi – "O'zbekiston madaniyati" va "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" o'chib ketmaydi, gazetasining chiqish ma'lumotlari joyida eslatilib turiladi. Shu paytgacha bir nashrning zamona zayliga ko'ra nomlari o'zgarib turganiga ko'p bora guvoh bo'lganmiz. Gazeta nomi ham odam ismiga ko'ra aytilishi osonroq bo'lishi tarafdoriman. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" nomini qisqacha "O'zAS" deb yurardik. Endi qisqacha "Jadid" deymiz.

Gap nomda emas, "non"da – mazmun va mohiyatda.

"Jadid" gazetasi six ham, kabob ham kuyamaydigan oltin oraliqni tutib, o'qishli maqolalar, o'tkir publitsistika, adabiy tanqid, pishiq-puxta adabiy asarlar chop qilsa va eng muhimi – mualliflarni moddiy rag'batlantirib, qalam haqi to'lashni yo'lga qo'ysa, nur ustiga nur bo'lardi. Ana shunda ijodiy raqobat maydoni yuzaga kelardi va bu gazetasining faol muallifi bo'lish sharafiga uchun harakat o'z-o'zidan boshlanib ketardi.

Millatimiz jadid bobolarini eslaganda ularga homiylik qilgan mahalliy tadbirkorlar nomini ham yodga olishi kerak va bu borada yangi nashrimizning rejalarini bo'lsa kerak.

Hammamizga yangi "Jadid"li yil muborak bo'lsin!

Olliyor BEGALIYEV



MILLIY ARMIYA

yoxud jadidlarning ushlagan orzusi

O'zbekiston armiyasi 32 yoshga to'lyapti. Bir yigit voyaga yetib, kuch-quvvatga to'ladigan muddat. Shunga hamohang aytish mumkin: bugun O'zbekiston Qurolli Kuchlarining qaddi, qudrati baland. Davlatimiz rahbarining fikri bilan aytganda, bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi.



Harbiy jurnalist bo'lganim uchun ko'pincha menga "O'zbekiston armiyasining qudrati nimada?" deya savol berishadi. "Kechayotgan yangilanishlar, o'zgarishlar, islohotlarga, ularning samarasiga qarasangiz yaqqol sezilasiz: qudrat – armiya va xalqning birdamligida" qabilida javob beraman. Armiya xalqdan, xalq armiyadan kuch o'lyapti. Mana shu ma'naviy qudrat aslida bizning ulkan boyligimiz. Har qanday

day armiyani orzu qilishgan? Bu haqda ko'p-ko'p mulohaza qilish mumkin. Maqolada yaqin tarixdan misol keltirmoqchimiz. Aniqrog'i, jaded bobolardan.

Jadidlar millatni uyg'otish, Vatan ozodligi, istiqbol uchun maorif, ta'lim, til, adabiyot va boshqa muhim masalalar bilan bir qatorda askarlik muammosini ham matbuotga olib chiqishgan. Nega? Sababi kunday ravshan. Negaki, chor Rossiyasi

niya" kitobida 1899–1917-yillar orasida Farg'ona, Samarqand, Hazorbo'yi, Sirdaryo, Yettisuv viloyatlarida 4922 marta chor hukumatiga qarshi ko'tarilgan bunday qo'zg'olonlar haqida ma'lumot keltiriladi. Bu yiliga o'rtacha 270 ta qo'zg'olon deganidir. Masalan, birgina 1917-yilda, to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra, xalq Farg'onada 324 marotaba, Hazorbo'yida 171, Samarqandda 47, Yettisuvda 5 ma-

Abdulla Qodiriy ham bir maqolasida tom ma'noda ozod va erkin bo'lish, chor Rossiyasi, undan so'ngra sho'ro hukumati tomonidan aholining toptalayotgan huquqlarini himoya qilish, istiqbolda nurlil kunlarga erishish uchun armiya tuzish zarurligini tilga oladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Mehnat-kashlar tovushi" gazetasi 1918-yil, 2-avgust sonida e'lon qilingan "G'alla, askarlik, yer va tazminat harbiya" 5 nomli maqolasida keltirilishicha, muallif 1918-yilning 16-iyulida Toshkentga boradi va Turkiston hukumatining raisi Tobulning qabuliga kiradi. Amaldor bilan millatning o'sha paytdagi eng og'riqli muammolari bo'lgan g'alla, askar olish, tazminat harbiya, yer va suv masalasida suhbatlashadi. Garchi tilga olinayotgan mazkur masalalarda Turkistonda qo'shin tuzish muammosi bevosita ko'zga tashlanmasa-da, mustamlaka zulmi ostida yashayotgan mahalliy xalqning dardi, tashvishi aks etadi. Millat dardlariga darmon bo'lmoqni ustuvor bir vazifa deb bilgan ma'rifatparvar bobomizning toptalayotgan huquq va erkinliklar himoyachisi sifatidagi ijtimoiy faol pozitsiyasi ko'z oldimizga keladi. Behbudiy sho'ro amaldorining qabulida bir soatdan ko'proq vaqt davomida tilga olingan muammolar Turkistonda tinchlik, osoyishtalik o'rnatilishida qanchalar dolzarb ekanligini tushuntirishga urinadi.

Hukumat raisi Tobul o'rtaga tashlangan to'rtta masala bo'yicha bildirilgan takliflarni yozib olib, yaxshi va dalar beradi. Maqolada bu haqda shunday fikrlar bor: "G'alla ishi siyozdida bo'lur, dedi. Samarqandda askarning ko'ngilli ravishda olinishig'a va yangidin tazminat olinmasligiga va ham yer taqsimini mavquf qolishig'a fikri birligini so'yladi. Va bu to'g'rida tadbirlar ko'rang'a va'da etdi".

Nufuzli amaldor Behbudiyga bergan va'dasining ustidan chiqdimi, yo'qmi, bizda uzil-kesil xulosa qilishga asos yo'q. Biroq sovet hokimiyati ayrim mas'ul shaxslarining o'z vazifasini suiiste'mol qilishi oqibatida Turkistonda milliy ozodlik harakati avj olgani tarixdan ma'lum. Masalan, bu haqda muallif S.Shur qizil armiyaning "Пролетарский мысн" gazetasi'dagi "Корни басмачество" va "Красная казарма" nashridagi "Борба за красный Туркестан" nomli maqolalarida asoslab keltiradi.

Sho'ro hukumatining siyosati aldov, xiyonat asosiga qurilganini o'z vaqtida anglab yetgan jadidlar tom ma'noda ozodlik va erkin bo'lgan kiritish uchun boshqa muhim masalalar qatori Turkistonda milliy harbiy qo'shinlarga kuchli ehtiyoj borligini shu sababli matbuotga olib chiqishadi hamda bu masala jiddiy muhokamalarga sabab bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilgan kun jadid ma'rifatparvarlarining eng katta orzularidan biri ushlagan tarixiy sana sifatida ham katta ahamiyatga ega. Bugun milliy xalqimizni har tomonlama rivojlantirish va xalqimiz bilan birdamligini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar vatanparvar ajdodlarimizning qarashlari bilan uyg'un va hamohangdir.

Alijon SAFAROV,
harbiy jurnalist

Oyina.uz kutubxonasi



yovuz kuchlardan ishonchli himoya qiladigan qalqonimiz. O'zining buyuk tarixiga va ajdodlariga munosib xalqimiz mamlakat xavfsizligini ishonchli ta'minlay oladigan milliy armiyani yaratadi.

Buyuk tarix va ajdodlar... Bobolar qan-

mustamlakachilari, undan so'ngra sovet hukumati Turkistonda avj olgan isyonlar, qo'zg'olonlar, milliy ozodlik harakatlarini bostirish maqsadida aynan o'zimizda harbiy kadrlar tayyorlashga zo'r berishdi.

Pyotr Galuzoning "Turkiston — kolo-

rotaba mustabidlarga qarshi isyon ko'taradi. Xalqning bunday noroziligini, ozodlik yo'lidagi harakatlarini qurol kuchi, armiya qudrati bilan bostirish maqsadida mustamlakachilar o'z navbatida 1900-yilda Toshkent kadetlar korpusini, 1915-yil praporshiklar maktabini ochdi hamda Turkistonda harbiy mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berdi. Hokimiyat sho'rolar qo'liga o'tgach, 1918-yilda Turkiston sovet qo'mondonligi kurslari tashkil etildi.

Turkistondagi tuzum bolsheviklar qo'liga o'tganidan keyin ham mahalliy millat vakillarining huquqlariga e'tibor berilmadi. Zulm, haqsizlik, adolatsizlik davom etdi. Shu sababli qo'shin tuzish, o'z armiyamizga ega bo'lish masalasini jadidlar matbuot orqali olib chiqa boshlashdi. Xususan, "Hurriyat", "Ishtirokiyun", "Turkiston", "Zarafshon", "Mehnatkashlar tovushi" kabi gazetalarda jadidlarning shu mavzudagi qator maqolalari chop etiladi. Abdurauq Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Muin kabi jadidchilik harakatining taniqli namoyondalari o'z chiqishlarida Vatan va hurriyat uchun armiya zarur ekanligi bilan bog'liq fikrlarini dadil ifoda etadi. Aniq misollarga yuzlansak.

Abdurauq Fitrat o'z maqolasida Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch qo'shin tuzish hayot-mamot masalasi ekanligiga e'tibor qaratadi.

Fitrat bobomiz aytgan kuch, qudrat masalasini Hoji Muin yanada keskin qo'yadi: "Hozirgi vazifamizg'a qarag'anda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxiliy sho'riy va inqilob xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanaqadadurki, bu sho'riydan vatan va hurriyatni qutqarib o'lmoq uchun askariy zo'r bir quvvatga molik bo'lmaqimiz mutlaqo lozimdir".

G'ulom ZAFARIY

QUVVATIMIZ ASKARDIR

Hamiyatparvar turkistonliklar!

Biz turkistonli turk bolalari muxtoriyat e'lon etdik. Endi muxtoriyatimiz barqaror bo'lsin, desak bizga quvvat lozim. Quvvatimiz bo'lgan asakarlikg'a jon-dili ila boqib qabimizni tavajjuh etaylik, aslo unutmaylik. Och, suvsiz tursak ham boshqa bir narsaga qaramasdan faqat qahramon askarimizni tushunaylik! Zero, bu islomiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydir, buning ila buyuk bo'ladi. Buning ila jon beradi, buning ila hayot bo'ladi, buning ila muzaffariyatlarga noil bo'lib jahonni titratadi. Buning ila ajdodlarimiz bo'lgan fothilarning qahramon ruhlarini shod etaylik, moziymizni xotirga keltirib istiqbolimizni ta'min etaylik, harakat etaylik, bir-birimiz-la yomon harakatlarda bo'lmasdan dushmanlarimiz-la olishib nom-shon olaylik, iftixor etaylik, lekin bu quvvat qaysi yo'l ila vujudga kelur?

Eshitingiz! Turklik-la iftixor etgan millat!
Bu kun rohatimizni tark etib, uxlamay, faqat bunlarni tushunaylik, zavq va vafoga tolmaylik, to'y-tomoshalarga mo'l-mo'l pullarni xarj etmay, iqtisodga rioya etib

orttirganimizni iona etaylik... Sandiqlarni, xaltalarni, yuklarni to'ldirmoqqa g'ayrat etmay quvvatimizni to'ldirmoqqa g'ayrat etaylik. Qimmatlik narsalarga, ya'ni olmosga, javohirga, zumradga, marjonga, yoqutga va kumush asboblarga oltunlarimizni berib-da, sandiqlarda hibs etsak, bunlarning na davlatga, na millatga, na Vatanga, na askarga foydasi bo'lmas. Sandiqlarda shundog'icha qolur. Balki egasiga ham foydasi bo'lmas...

Bu kun bizni askarimiz naqadar ko'b bo'lsa, ul qadar quvvatli, haybatli bo'lurimiz... U vaqt biz dushmanlarga ko'kragimizni kerib qaramiz. Hamda orzu etgan masalalar to'bsiz, to'fangsiz, silohsiz, musratsiz hosil bo'lur. Oning uchun doimo to'pimiz, to'fangimiz, askarimiz mavjud bo'lmo'g'i taqazo etilar. Har holda bu yo'lda g'ayrat etaylik...

Yashasin himmatli boylarimiz, yashasin askarlarimiz, yashasin millat, yashasin Vatanimiz, mahv o'lsin dushmanlarimiz...

"Ishchilar dunyosi" jurnali
1918-yil 2-son.

MAKTUB

YANGI KUCH, YANGI HARAKAT

Buyuk Ipak yo'lining qalbidagi joylashgan O'zbekiston bugun xalqaro maydonda olamshumul tashabbuslarni ilgari surmoqda. Iqtisodiy va siyosiy yuksalishlar sababli bu o'lkada fikr erkinligi bilan bog'liq jarayonlar ham yuz bermoqda. Bahs etayotganimiz fikriy yangiliklar ayni kunlarda ham uzluksiz davom etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016 yilda davlat rahbari vazifasiga kelishi bilan O'zbekiston siyosat, iqtisod, tashqi siyosat sohaslarida yangicha rivojlanish yo'liga kirdi. Bu davrda amalga oshirilgan yangilanishlarning barchasi "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da yaqqol aks etgan. Yangi O'zbekiston fikriy va amaliy harakatlarini ham mustahkam asoslar ustida insho qilishda davom etmoqda. Aslida bu fikrlar faqat Yangi O'zbekiston rivoji bilan bog'liq emas, balki ildizlari ming yillarga borib tutashadigan tarixiga ham bog'liq.

O'zbekiston boshqaruvning barcha yo'nalishlarida davom etayotgan yuksalishlar tezligini bir lahza ham kamaytirmay, 2024 yilga "Jadid" nomli gazeta bilan kirib keldi. Mazkur yangi gazeta o'z nomini XIX asrning oxiri va XX asrning ilk choragida Grim, Buxoro, Qozon kabi markazlar peshqadamligida turkiy va qardosh xalqlar ichida paydo bo'lgan ilmiy, fikriy, ma'rifiy va ijtimoiy oqim bo'lgan jadidchilik harakati nomidan olmoqda. Shu bois, Ismoil Gaspirinskiyning "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan da'vatkor so'zlari ushbu gazetaning shiori etib belgilanganligi ayni muddaodir.

Barokatli fikriy nihollarga boy bu tuproqlar IX va XII asrlar orasida yuzaga chiqqan birinchi, XIV va XVI asrlarda yashagan ikkinchi fikriy va ilmiy inqiloblardan keyingi XX asrning birinchi choragida yangi bir Renessansning eshiklarini ochdi. "Jadid" gazetasi O'zbekistonda yuz ochayotgan yangi uyg'onish davrining oldingi saflarida bo'lishiga ishonamiz.

Doktor Ahmet Akalin,
Turkiya


Yangi yilda chop etila boshlagan "Jadid" gazetasi bilan barcha taraqqiyparvar mushitariylarni chin yurakdan qutlayman. Jadidlar demokratiya va tenglik g'oyasini olg'a surgan ilg'or millat fidoyilari edi. Bugun O'zbekistonda keng ko'lamlil islohotlar ilm-fan, madaniyatni rivojlantirish asosida olib borilayotgani ham jadidlar maqsadiga hamohangdir.

O'tgan yil oxirida Toshkent shahrida o'tkazilgan jadidlar merosiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada qatnashgan chog'imda men o'zbek xalqi va ziyolilari o'z an'analari hurmat qilish bilan birgalikda bashariyatning zamonaviy ilg'or texnologik yutuqlarini ham o'zlashtirish va hayotga tatbiq etishga tayyorligiga guvoh bo'ldim.

Abdulla Qodiriy qalamining quvvati, Cho'lponning go'zal tashbehleri, Fitratning nuktadan nazari gazetada doim aks etib turishini tilayman.

KRISTOFER FORD,
AQSH

BIR SURAT SHARHI



NIGOH SEHRI

Karl Gunning "Ko'k ko'yakli xonim" asarini O'zbekiston davlat san'at muzeyining tashrif hog'ozlari deydish mumkin. U hajman kattaligi, tasvirning jonliligi va yosh xonim nigohidagi sirli horg'inlik tufayli diqqatni tortadi. Yonoqlaridagi husniga husn qo'shib turgan qizillik esa u yashirishga urinayotgan xastalik nishonasi.

Muzey xodimasi aytgan ma'lumotga ko'ra, bu surat XIX asrning birinchi yarmiga taalluqli. Asarning nafisligi va jonli tasviri bilan birga yaratilish tarixi ham qiziqarli. Zodagon kishining suyuqli rafiqasi tuzalmas dardga chalinadi. Ayoliga bo'lgan kuchli sevgisi tufayli undan esdalik qolishini istab, suratini chizdiradi. Keyinchalik, boy janobning rafiqasi vafot etadi. U rassom Karl Gunning asarini yakunlab berishini so'raydi va suratdagi ko'k ko'yakli bo'y-basti ayoliga o'xshash xizmatkor kiyib turadi. Asarning qimmatini zarracha kamaytirmagan holda, qaytaga qadriini oshirishga xizmat qilgan tarixiga ega betakror surat dunyoga keladi. Qo'ng'ir sochlar, yupqa pushti lablar. G'arbda mukammal tasvirlash ustunligi sababidan xona o'ta hashamdor, asar nomiga aylangan

ko'k ko'yak esa mukammallikning ayni o'zginasi.

Asarda kishini o'ziga maftun etuvchi, anglash qiyin bo'lgan bir sirliilik bor. Nazarimda, faqat shu suratni ko'rish uchun kelgan kishi ham tashrifidan afsuslanmaydi. Surat qimmatini, ehtimol, soha mutaxassislari yaxshiroq bilishar. Men uchun esa, uning qimmatini jimjimador ko'yak kiygan sarvqomat sadoqatli dilbarning sevgisidir. Bu xonim meni o'ziga shunchalar maftun etib qo'ydi, bir kunda bir necha bor ko'rishga bordim. Ishonch bilan ayta olamanki, tasviriy san'at shaydolarini "Ko'k ko'yakli xonim" o'ziga maftun etmay qo'ymaydi. Go'zallikda sir bor, dardli chiroyda esa sehr.

Eldor ABDULLAYEV,
talaba



NURXONA

BOQIY XAZINA

O'zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida dong taratishida kutubxonalarning o'zni katta bo'lgan. Ayniqsa, IX - XII asrlarda, Amir Temur va Temuriylar davrida mamlakatda ulkan kutubxonalar tashkil etildi, ilm-fan yuksaldi. Keyingi asrlar, xususan, xonliklar davrida ham mintaqadagi yirik shaharlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qonda hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar faoliyat yuritgan.


Sadri Ziyov ma'lumotlariga qaraganda, XX asrning boshida birgina Buxoro shahrida 13 ta kutubxona, 96 ta qiroatxona bor edi. Shahardagi hukmdor saroyidagi kutubxonada xitoy, uyg'ur, pushtu, fors, arab va boshqa tillardagi qo'lyozmalar saqlangan. Kutubxonada kitobdor, mushrif, risolachi va mirzolar xizmat qilgan.

Saroy kutubxonasida amirlarning shaxsiy kolleksiyalari bilan birga 47500 jild turli tillardagi qo'lyozma va toshbosma kitoblari saqlangan.

Xiva shahrida ham xon saroyida juda boy kutubxona bo'lgan. Bu yerdagi qimmatli qo'lyozmalar asrlar mobaynida to'planagan. Ayniqsa, Xiva xonligining ma'rifatparvar hukmdori Muhammad Rahimxon Feruz davrida kutubxonaga katta e'tibor berildi. Juda ko'p asarlar qayta ko'chirildi, tarjima qilindi, toshbosma usulda chop etildi, yangi asarlar yaratildi.

Shaharlardagi deyarli har bir madrasa o'z kutubxonasiga ega bo'lib, ularda ta'lim jarayonida foydalaniladigan darslik, qo'llanma va adabiyotlar, badiiy adabiyot, islom dini, tarix, tibbiyot, geografiyaga oid qo'lyozmalar saqlangan. Xususan, Buxoro amirligida XX asr boshlarida yirik madrasalar qoshidagi kutubxonalarda bir necha o'n minglab qo'lyozmalar saqlangan. Kutubxonalar uchun alohida vaqf mulklari ajratilgan.

Kutubxonalarda kitoblarni saqlashdan tashqari, yangi kitob bilan boyitib borish uchun ham vaqflar ta'bis etilgan. Kutubxonalar musulmon davlatlaridan olib kelingan ko'plab adabiyotlar jamlangan. Kutubxonalar nodir kitoblarni to'plash, ular-



dan hech bo'lmaganda nusxa ko'chirish orqali ham to'ldirib borilgan. Buxoro madrasalarida kutubxonalar maxsus binolarda joylashgan, ularda harorat va havonamligi kuzatib borilgan, kitoblar a'lo sifatli qog'ozlarga yozilib, charam muqovalar bilan muhofaza qilingan hamda maxsus charam sandiqlarda saqlangan.

Buxoroda o'z davrining taniqli ulamolari, xususan, qozilarga hamda amaldorlar, ya'ni beklarga tegishli xususiy kutubxonalar ham mavjud edi. Shaharda eng boy shaxsiy kutubxona amirzoda Hashmatga tegishli edi. U Buxoro amiri Muzaffarning o'g'li bo'lib, o'zi ham bir necha asarlar yozib qoldirgan. Mamlakatda yana bir nechta yirik shaxsiy kutubxonalar bo'lgan.

Bundan tashqari, Buxoro amirligidagi yirik beklilar markazlari xususan, Kitob,

Shahrisabz shaharlarida ham bek huzurida kutubxonalar bo'lgan. Ammo kutubxonalar, asosan, saroy a'yonlari, amaldorlar, olim va ulamolalar uchun ochiq bo'lib, keng xalq ommasidan ulardan bebahra edi.

Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklarini zabt etish jarayonida harbiylar tomonidan o'lka shaharlari, hukmdorlar saroylari, beklilar markazlari va madrasalardagi kutubxonalardan juda ko'p qadimiy qo'lyozmalar talon-taroj qilingan. Ularning eng qimmatlari Rossiya muzeylari va kutubxonalari jo'natilgan, qolgan katta qismi to'planib qolgan edi. Ularni bir joyda saqlash masalasini hal etish uchun o'lka ma'muriyati Turkistonda kutubxona tashkil etishga qaror qiladi. Shu tariqa 1870-yilda Toshkentda rus aholisi va amaldorlari uchun ilk kutubxona tashkil etilib, uning fondini rus tilidagi kitoblar bilan boyitish uchun Rossiya Fanlar akademiyasi, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan yuborilgan kitoblar hisobidan 2200 jild kitob to'planadi.

1886-yili kutubxona fondi 15500 taga yetadi. Shundan 6000 jildini O'rta Osiyo va unga chegaradosh mamlakatlarga bag'ishlangan, turli Sharq va Yevropa tillarida yozilgan asarlar tashkil etgan. XX asr boshiga kelib, kutubxona jamg'armasi 40 ming jildga yetadi. Uning tarkibida 22160 nomdagi asarlar, turk, fors, arab va boshqa tillarida yozilgan ko'plab qo'lyozmalari mavjud edi. Kitobxonalardan asosan ofitserlar, amaldorlar, davlat xizmatidagilar va savdogarlar foydalanishgan.

Bunday sharoitda o'lkada yangi usul maktablari, ilk teatr, milliy matbuot va nashriyotlar tashkil etib, ma'rifatparvarlik harakatlarini olib borayotgan jadid ma'rifatparvarlari keng xalq ommasiga, ayniqsa, yoshlarga ziyo tarqatish maqsadida dast-

labki ommaviy kutubxonalarga asos solish haqida ham qayg'ura boshladilar.

1908-yili Namangan uyezdingining To'raqo'rg'on qishlog'ida Is'hoqxon o'g'li Ibrat tomonidan "Matbaai Is'hoqiya" nomli ilk nashriyot 1910-yilda Namanganga ko'chirilib, uning qoshida "Kutubxonai Is'hoqiya" nomli kutubxona tashkil etildi. Kutubxonada o'zbek, fors-tojik, rus, tatar va turk tillaridagi adabiyotlar, darslik va qo'llanmalar, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq adabiyotlar, o'sha yillari chop etilgan rus va musulmon matbuoti namunalarini to'plangan edi. Ibrat kutubxonaga mudir tayinlab, kitoblarni va ularidan foydalangan o'quvchilarni tartib bilan yozib borishni yo'lga qo'ygan.

Bu davrda Buxoro shahrida ham yosh buxoroliklar tomonidan Unda tashkil etiladi. "Ma'rifat" kutubxonasida mamlakatda va xorijda chiqarilgan yangi adabiyotlar, gazeta va jurnallar, jumladan, Istanbulda chop etilgan "Hikmat", "Sirotil mustaqim", "Ta'rifi muslimin" jurnallari, Rossiyada chop etilgan "Tarjimon", "Irshod", "Vaqt" gazetalarini va "Sho'ro" jurnali, Turkistonda chop etilgan jadid matbuoti namunalarini jamlangan.

1913-yili Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yangi usul maktablari uchun darsliklar chop etish, mahalliy matbuotni rivojlantirish maqsadida "Nashriyoti Behbudiy" kutubxonasi tashkil etiladi.

Kutubxonada zamonaviy adabiyotlar bilan bir qatorda o'sha davr matbuot namunalarini, diniy, tarixiy adabiyotlar ham jamlangan.

1914-yili Toshkentdagi "Turon" jamiyati qoshida ham kutubxona, ham qiroatxona tashkil etilgan. Jamiyat a'zolari kutubxonaga o'z shaxsiy kitoblarini sovg'a qilishgan, shu tariqa yaxshigina kitob xazinasi-ga ega bo'lgan kutubxona yuzaga kelgan.



"Turon" kutubxonasi keyinchalik Toshkent viloyati kutubxonasiga aylantiriladi.

1915-yili Qo'qon shahrida Hamza Hakimzoda tomonidan "G'ayrat" kutubxonasi tashkil etiladi. Kutubxonaga Toshkentda chop etilgan yangi darslik va qo'llanmalar, tarbiyaga oid adabiyotlar olib kelinadi. "G'ayrat" kutubxonasi maktab o'qituvchilari va o'quvchilari darslik va adabiyotlar bilan ta'minlashda katta yordam beradi.

Mazkur kutubxonalarda, asosan, zamonaviy adabiyotlar - yangi usul maktablari uchun yaratilgan darsliklar, musulmon davlatlarida va Turkistonda chop etilgan matbuot namunalarini, taraqqiyparvarlar ijodiga mansub adabiyotlar jamlangan. Kutubxonalarini tashkil etishdan asosiy maqsad, avvalo yoshlar, maktab o'qituvchilari, madrasa tala-

balari, ziyolilarni yangi adabiyotlar, darsliklar, matbuot bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat edi. Chunki bu adabiyotlar va gazetalarni boshqa biror joydan topish amrimahol edi. Shu tariqa jadid ma'rifatparvarlari XX asr boshida mintaqa shaharlarida ma'rifatni keng targ'ib qilish maqsadida dastlabki ommaviy kutubxonalarga asos soldilar.

Ularning shaxsiy mablag'lari va xayriyalar hisobidan tashkil qilingan bu kutubxonalarida jamlangan adabiyotlar mazmunini va yo'nalishini jihatidan saroy kutubxonalaridan ancha farq qilib, zamon ruhini aks ettirgan, xalq ommasiga, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Dono ZIYOYEVA

tarix fanlari doktori

O'LMAS NAVOLAR

MAQOMNING YUKSAK MAQOMI

Buyuk alloma, davlat va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat serqirra ijodiy faoliyati davomida adabiyot, tarix, falsafa, tilshunoslik, teatr dramaturgiyasi bilan bir qatorda, musiqa san'ati sohasida ham zakiiy olim, nozikta'b shinavanda sifatida faoliyat yuritdi.

Buxoro xalq maorifi noziri lavozimida ishlagan Abdurauf Fitrat 1921-yili "Sharq musiqa maktabi"ni tashkil qilib, maqomdon ustozlar Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Domla Halim Ibodovni mumtoz musiqa ijrochiligidan, V. Uspenskiy kabi olimlarni musiqa tarixi va nazariyasi fanlaridan yosh avlodga saboq berish uchun ishga taklif etadi. Eng asosiysi, Fitrat ma'rifatparvar jamiyatga Shashmaqomdek muhtasham turkum fenomenini ochib bergan birinchi milliy olimdir. 1925-yilda nashr etilgan Shashmaqom haqidagi ilk maqola ham aynan uning qalamiga mansub.

1923-yili Fitrat tashabbusi bilan Buxoro Shashmaqomi taniqli folklorshunos olim va kompozitor Viktor Uspenskiy tomonidan ilk bor nota yozuviga olingan. U maqom bilimdonlari bo'lgan Buxoro amiri saroy musiqa-chilari Ota Jalol Nosirovdan Shashmaqom ashula yo'llarini, Ota G'iyos Abdug'aniyevdan esa cholg'u yo'llarini jonli ijro jarayonida nota qog'oziga muhrlaydi. Shu tariqa, 250 dan ziyod cholg'u kuylari va ashula yo'llarini o'zida jamlagan Shashmaqom turkumi birinchi marta besh chiziqli nota yozuvida "Шест музыкальных поем (макомы)" nomi ostida 1924-yili chop etiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, maqomlar, xususan, Shashmaqom turkumi avvallari ish-qiy-lirik mavzular bilan bir qatorda, pand-nasihat va diniy-falsafiy mazmundagi she'rlar bilan kuylangan. Oxirigisi esa, shubhasiz, sho'rolar zamoni siyosiy mafkurasiga zid kelgan. O'sha paytda hukm surgan siyosiy-ijtimoiy vaziyatni



hisobga olmaslik og'ir oqibatlariga olib kelishi muqarrar edi. Shashmaqomning aynan she'riy matnlarsiz nashr etilishi sabablaridan biri ham shu. Shu bois, bu muhtasham turkumning ashula bo'limi sho'balari va ularning tarkibiy qismlari o'tgan asr boshlarida qaysi she'rlar bilan aytilgani biz uchun qorong'i bo'lib qolmoqda.

XX asrning boshlarida keskin o'zgaragan siyosiy, mafkuraviy-ijtimoiy sharoitlarda maqomlarni saqlab qolish, notaga yozib olish va ilmiy o'rganishga ulkan hissa qo'shgan alloma Abdurauf Fitratning o'zbek musiqa san'atini rivojlantirish yo'lidagi tashkilotchilik, rahbarlik ishlaridan tashqari, 1927-yilda chop etilgan "O'zbek klassik mu-

siqasi va uning tarixi" nomli ilmiy risolasi o'zbek musiqasi tarixi, xususan, mahobatli Shashmaqom turkumi, uning cholg'u va ashula bo'limlari, milliy cholg'ular haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi noyob manba bo'lib qoldi. U orqali alloma yashagan davr musiqasi va cholg'ulari, ularning tur-

laridan voqif bo'lib, hozirgi kunda amaliyotda qo'llanayotgan cholg'ulardan farqi va umumiyliklarini kuzatish imkoniga ega bo'lamiz.

Risola muqaddimasida muallif o'zbek musiqasi asoslarini belgilash, uni tashkil etgan unsurlarni aniqlash va natijada xolisona ilmiy xulosalar chiqarishni maqsad qilganini yozadi. Asarning "Sharq musiqasi" nomli qismida mumtoz musiqamiz, xususan, maqomlarimizning ajdodi bo'lgan O'n ikki maqom tizimiga to'xtab o'tadi. Risolaning "O'zbek musiqasi" nomli qismi aynan Shashmaqomning tuzilishi, uning allo-ma yashagan davrdagi holati, bo'limlari xusudasi atroflicha ma'lumot beradi.

Oyina.uz kutubxonasi

Ma'lumki, maqomlarimizning tuzilishida muvaqqat poydevor bo'lgan doyra usullari muhim o'rin tutadi. Shashmaqom tarkibida uchraydigan aksariyat cholg'u kuylari va ashula yo'llarining nomi aynan doyra usullarining nomidan olingani ham fikrimizning dalilidir. Abdurauf Fitrat o'z risolasida doyra usullariga ikki marta alohida o'rin ajratadi: birinchisida "hajaj", "ramal", "vofir" kabi birmuncha qadimiy usul xususida ma'lumot bersa, ikkinchisida o'zi yashagan davr Shashmaqom turkumining doyra usullarini batafsil bayon qiladi. Asarning "o'zbek milliy sozlari"ga bag'ishlangan qismida muallif dutor, tanbur, rubob, qo'buz, g'ijjak, chang, nay, qo'shnay, surnay, bo'lamon, karnay, doyra, nog'ora kabi cholg'ularning har biriga alohida ta'rif berib, ularni hozirgi davrdagi holati bilan taqqoslash imkonini yaratadi.

Mazkur asarning "O'zbek musiqasi tarixiga bir nazar" nomli qismida esa, qadimgi raqs va baxshichilik san'ati, mumtoz musiqa ijrochiligi va bastakorlik, musiqashunoslik faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'rta asrlarda yaratilgan musiqiy risolalarga tayangan holda sharhlab beradi. Shuningdek, xalq orasida "Qari Navo" nomi bilan mashhur bo'lgan kuy tarixiga to'xtalar ekan, "Bu kun O'zbekistonning ko'b o'runlarida "Qari Navoiy" ismli bir kuy bor. Bu kuyning juda eski bir kuy ekani har tomonga so'ylanib turadi. Buxoroning eski musiqiyshunoslari orasida uning Navoiy asari bo'lgani so'ylanadi. Mana shu ma'lumotlardan so'ng "Qari Navoiy" kuyining Alisher Navoiy asari bo'lgani ehtimoli kuchlanib qoladi. Har holda biz shu ehtimolni ko'zda tutub, "Qari Navoiy" kuyining notasini asarimizga ilova qilishni munosib ko'rdik. Navoiyning musiqiyg'a xizmati yolg'u kuylar bastalamak bilan qolmaydir. Navoiy eng buyuk musiqiy ustodlarni, eng iste'dodli musiqiy talabalarni o'z tarbiyasiga oldi", deya zabardast musiqashunos olimga xos mushohada yuritadi.



Shahnoza OYXO'JAYEVA, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Fitratning mazkur risolasini o'rganish jarayonida uning "uchta o'zaro bog'liq kesimda: 1) o'zbek musiqasining tarkibiy va mantiqiy qismi bo'lmish "turk musiqasi" kesimida; 2) sharq musiqasi (sharq-islom musiqasi) kesimida, uning tarkibidagi turli etnomilliy tarmoqlar (arab, fors, ozarbayjon, usmoniy turk va boshqa)ni nazarda tutgan holda; 3) keng miqyosdagi "Sharq-G'arb" (sharq musiqasi-g'arb musiqasi) kesimida mushohada etilgani ma'lum bo'ladi.

Abdurauf Fitrat nafaqat milliy musiqamiz, balki Yevropa janrlarini o'z ichiga olgan kompozitorlik ijodiyoti bilan ham birdek qiziqqan. Jumladan, uning 1920-yili "Ishtirokiyun" gazetasida "Vokal san'ati va opera xususida" nomli maxsus maqolasi chop etiladi. Keyinchalik unda opera yaratish g'oyasi ham paydo bo'ladi. Mazkur opera Buxoro amiri davrini aks ettiruvchi mavzuda bo'lishi rejalashtirilgan. Opera musiqasini ijodiy hamkori V. Uspenskiy bastalashi ko'zda tutilgan edi. Ammo bu ish Fitratning nohaq qamalishi sabab amalga oshmay qoladi.

Ta'kidlash joizki, Abdurauf Fitrat o'zining samarali izlanishlari bilan XX asr o'zbek musiqashunosligining asoschilaridan biriga aylandi. U shoir va adib, dramaturg va publitsist, tilshunos va adabiyotshunos, tarixchi va faylasuf, san'atshunos va jamoat arbobi sifatida madaniyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi.



MADANIYAT TO'LQUNLARI

YURT QAYG'USI

Boshi 1-sahifada



Abdulla AVLONIY

Har kimga ma'lumdirki, dengizlarning to'lqunlari bir tarafdin ikkinchi tarafga ko'chub yuriydir. Bu kun bir tarafdin to'lqun bo'lsa, ertasi ikkinchi tarafdin boshlanub, avvalgi shovullab, qichqirub, shodligindanmi yoki boshqa bir sababdanmi bir necha sajin yuqoriga sakrashub turgon yerlari sukut va sokit bo'lub qoladir. Shunga o'xshash Bani bashar (Odam bolalari) orasida ham madaniyat to'lqunlari quvishub va surishub yuriydir. Bir asr ichinda taraqqiy va madaniyat dunyosida g'ota urub, suzishub yurgan bir qavmni ko'rasanki, ikkinchi asrda tanazzul dunyosiga yuzlanub, vahshiylik olaming eng og'ir nuqtasiga borub yetadur. Buning sababi ijtihod va g'ayratning ozayuvi, ittifoq, insof va adolatning yo'qoluv, xalqning ilm-u ma'rifatdan uzoqlashub, buzug' ishlarga mayl va rag'batlari ortuvidir.

Har bir millat maishat tarafindan taraqqiyga yuz qo'ymasa, ma'naviy tarafidan, ya'ni ma'rifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas, bir kishining o'z maishatiga yetarli mol-u ashyosi bo'lmasa va bularning sababiga harakat qilmasa, moddiy va ma'naviy ishlarni qilmoqdan o'z qolur. Va bunday och-u yalang'och o'z avqotini o'tkara olmayturgan bir xalqqa ma'rifati, madaniyati, ulum va funundan dars vermak munosib bir ish o'lmasa kerak, chunki faqir xalqlarning kecha-kunduz fikrizikri non topmak va bola-chaqasining qornini to'yg'uzmakdir. Taajjubki, mam-

lakatimizning yerlari, o'simlik tuprog'i barakatlik bo'lib turub, yerli xalq och va yalang'och, boyqush kabi vayronalarda umr o'tkaradilar.

Bu taraqqiy zamoni va madaniyat asri, bilmam, bizni na yerga olib borajak, ibrat ko'zi ila Eski shahrimizning musulmon dahalariga nazar solgan kishi har mahallada yuzdan to'qson xonalarni(ng) buzilgan, yorilgan, vayrona va inqiroz dunyosiga yuzlangan bir holda ko'radir. Go'yo bu xonalarning devorlari, tomlari lisoni hol ila bizni ilmsizlik, tarbiyasizlik, to'y deb minglarcha aqchalarni behuda isrof qilmak, to'ylarda jomafurushlik qilmak vayrona va xarobazorlik soldi, deyurlar. Emdi, vayrona sohiblarini faqir va xorlikda yashagan, bola-chaqalarini qo'l kuchi ila to'ydiradig'on, to'y degan yerda muqaddas Vatanini sotub, sarf qilmoqdan tortinmaydirgan "hoziram huzuram" deb istiqbolini o'ylamagan va bolalarining saodatini tushunmagan bir qavmdan qanday taraqqiy, madaniyat va ma'rifati kutmak kerak? Och-yalang'och, kulfat, mehnat va zahmat balolari orasida o'rilib qolgan bir qavmga: "Madaniyatga kiringiz, maktab solingiz, o'qungiz, taraqqiy qilingiz" kabi so'zlarning foydasi o'lmadig'i oftobdan ham ravshandir. Bu faqirlikning eng qo'rquch to'lqunlari orasida ezilgan xalqimizni to'y marazidan qutqarurga tirishmak va iloj istamak lozimdir...

Ovrupolilar hozirgi yigirmanchi asrgacha madaniyat to'lqunlari ichra yashadilar va bu cholishton ovrupolilar madaniyat to'lqunlaridan qo'rqmadilar, qochmadilar, harakat qildilar, asbob va mashinalar hozirladilar.

Va bu madaniyat to'lqunlarini o'zlariga asir-u musaxxar qilib oldilar. 15 nchi asrda madaniyat suvlarini surib, Amriqo qit'asiga olib bordilar. Amriqoning yerli vahshiy xalqlari "eshiklaridan oqq'on suvning qadrini bilmadilar", madaniyatga kirishmadilar, qabul qilmadilar. Ota-bobolaridan qolg'on odatlarini tashlamadilar, o'zlaricha vahshatda avratlarini yaproqlar ila o'rtub, boshlariga tovus patlarini san-chub, yalang'och goh daraxtlar ustida, goh kafalarda, goh yerto'lalarda do'mbira va chirmandalarni cholub, yashay berdilar, madaniyat orqalaridan quvdi, qochdilar. Na yerga borsalar, madaniyat ham bordi, qochib qutulolmadilar, oxirida madaniyat g'alaba qilib, inqiroz dunyosiga kuzatub yubordi. Mana shu jumladan, yarim-yorti vahshatda yashash O'rta Osiyoga, Turkistonimizga Rusiya hukumati ila barobar madaniyat suvlari kelub kirdi. Hozir yarim asrdurki, madaniyat bizni orqamizdan quviyur. Biz qirdan qirg'a qochurmiz, qarshimizda maishat mashaqqatlari chiqub hujum qilur, o'ngimizdan bilimsizlik va jaholat kelub, jonlarimizni siqur, so'ngimizdan musriflik, faqirlik va bid'atlar chiqub yo'limizni to'sur. Dangasalik, yalqovlik, ishsizlik ustimizdan bosub bo'g'mak istar.

Ajabo! Bizlar hamon bu eskincha romka orasidan chiqub qochmak va qutulmak mumkinmi? Yo'qmi? Bizim fikrimizcha, qochmoqning imkoni yo'q, kutulmak-u xalos bo'lmakning faqat birgina chorasi bordurki, madaniyatni qabul qilmak va madaniyatga kirishmakdir. Lekin kirishganda ham madaniyatning haqiqatini bilmak va haqiqiy madaniyatga kirishmak lozimdir. Ba'zi yoshlarimizga o'xshash us-

yalitragan, ichi qaltiragan bo'lub, boshlariga Yevrupo qalpog'ini kiyub "Madaniyat!", "Madaniyat!" deb og'izlarini ko'purturub, oz-moz musulmoncha, chala-yarim ruscha so'ylashub kulgu bo'lib yurmak madaniyat bo'lmay, masxarabozlikning bir shu'basidir.

Yoshlarimizdan madaniyatga lo'yiqlik ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta'limga mohir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartibli bo'lsa, ziraot, sanoat va tijorat ishlari-ga mohir kishilar yetushub, zamonaga muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartibli "Dorul-yatim" – yetimxonalar, "Dorul-oyjiz" – kambag'alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkat (товарищество)lar barpo qilinsa, yuqorida dedigimiz kabi, xalqimiz orasida zamonaga loyiq ulum va funundan boxabar ulamolimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qutilsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlang'on hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulub, sohili salomatga chiqg'on bo'lur eduk. Sohili salomatga chiquvimizga zamon musoid verurmi, vermasmi bilmaymiz.

*Ilm ila olam musaxxar bo'ldi,
biz johil hanuz,
Xobi g'afat boshimizga yetsa
ham g'ofil hanuz,
Ochmayin ibrat ko'zin biz
uyqug'a moyil hanuz,
Ilmi hikmatlarga a bizlar
bo'lmaduk qobil hanuz
She'rini virdi zabon qilmakdan
boshqa choramiz yo'q.*

TURKISTON TARIXI

Milliy maktablarda o'qulmoq uchun milliy tarix kitoblarning luzumi har kimga ma'lumdur. Har millat va har qavm maktablarida avvalo o'zlarining milliy tarixlarini o'qutmadir. Ibtidoiy maktablardan maqsud ham o'z ona tilini bildurub, o'z adabiyoti ila oshno qilmak, bilvosita yosh o'smir bolalarning muloyim qalblariga millat ham vatanga muhabbat urug'ini sochmak; milliy til, milliy adabiyot va milliy tarix ila onlarning fikrlarini tanvir etmakdan iboratdir. Shul muhabbat habbasini o'sdirub, bolalarning hissiyoti milliyatlarini uyg'otmak va onlarni chin va haqiqiy millat xodimi qilmoq uchun onlarga milliy tarix o'qutmoq labudda minhudir (shartdir-Z.A.). Shuning uchun madaniy va mutaraqqiy millatlar o'z milliy tarixlariga ziyoda ahamiyat beradilar. Tarix ilmi g'ama ahamiyat berganlari kabi oning olimlarini – muarrixlarini ham e'zoz va takrim qiladilar. Lekin maantaassuf bizim Turkistonda bu kungacha "tarix"ga ahamiyat berilmadi. Maktablarimiz uchun milliy tarix kitobi (Turkiston tarixi) yozilmadi.

Shu sababdan bo'lsa kerak, maktablarimizda o'qugan va o'qub chiqqan bolalarimizda milliy ruh va milliy hissiyot bo'lmay, millat uchun oz tahti dil (yurakdan-Z.A.) xizmat qilganlari ko'rinmaydi... Tarix o'qumag'onlikdan kelgan zararlari sanabgina bituririk emas: o'z milliy tarixini bilmagan millat, o'z atasini bilmagan "...dan

tug'ilgan bir bolaga o'xshaydir. Tarixi majhul bo'lgan millatni istagan qadar tahqir qilurlar, vahshat va jaholatga nisbat berular, nohaq itiforlar qilurlar. Ammo ul millat voq'eda go'yo yaxshi otaning bolasi bo'lsa ham milliy tarixidan, ya'ni ota-bobosining dunyoda nechuk umr surganlaridan xabarsiz bo'lgani uchun boshqalar tarafidan qilingan itiforlardan o'zini poklamak va onlar tarafidan suykalgan



qoralarni oqlamakdan o'z qalaroq, turli haqorat va bo'htonlarni bo'yniga olmoqqa majbur bo'lur. Bu satrlarni yozmoqdan maqsudim tarix bilmaganlarni tahqir qilmoq emas, balki onlarga tarixning ahamiyatini bildirmak va shuning ila barobar milliy tarix vujudga kelturmak uchun onlarni targ'ib va tashviq qilmakdir.

Hozirda bu masalaning qimmat va ahamiyatini maktab muallimlari bila boshladilar. Faqat kitob yo'qlikdan bolalarga o'qutmoq xosiyatidan mahrumdirlar.

Zotan tarix ahamiyatli bir ilmdir. Agar ahamiyatsiz o'lsa, Qur'oni Karim va boshqa kutubi samoviya sahifalariga darj etilmas (bitilmas-Z.A.) edi. Demak, tarix muhim bir darsdir. Bir millatning butun ahvoli ruhiyasi – jamiyati bashariya va hayoti ijtimoiyada o'ynag'on roli yolg'uz shul tarix vositasi ila bilinur. Tarix millatning joni – ruhi, moddiy va ma'naviy hayotidir...

Tarixning ahamiyati har kimga ma'lum bo'lganidan bu haqda so'zni uzoq cho'zib tururg'a hojat ko'rmayman. Faqat boshqa hech bir ishga qaramasdan, soatlar va daqiqalarni uzdirmasdan tezlik ila maktablarimiz uchun "Turkiston tarixi" yozmoq lozimdir.

Muni kim yozar? Bu masalaning javobini qoriylarimiz va ziyolilarimiz bersunlar.

Nushiravon YOVUSHEV
"Sadoyi Turkiston" gazetasi 1914-yil, 17-sonidan
Zaynobiddin ABDIRASHIDOV nashrga tayyorladi.

TAQVIM

Gazetamizning "Ta'qvim" ruknida jadid ziyolilarining vaqtili matbuot sahifalarida bosilgan e'tiborga molik badiiy, adabiy-ilmii, madaniy-ma'rifiy manbalarni qayta nashrga tayyorlab taqdim etish rejalashtirildi. Tarixiy manbalar orqali muhtaram "Jadid" mushariyatlari davr ruhi, matbuotning holi, ularda yoritilgan masalalar, turli bahs-munozara va yangiliklardan boxabar bo'lishi tabiiy. Bu ruknda beriladigan manbalar gazeta nashr bo'layotgan hozirgi kun

sanasidan biron farqlanishi yoki sanalari o'zaro mos kelishi ham mumkin. Deylik, ushbu sonda berilayotgan Abdurahmon Sa'diyning "O'zbek yosh shoirlari" nomli maqolasi quyidagi qismi aynan bundan roppa-rosa 100 yil oldin "Turkiston" gazetasining 1924-yil 12-yanvarida chop etilgan edi.

Tahririyat

allaqanday chuqur falsafiy so'zlar so'zlatish har holda g'ayritabiiy bir narsadir.

Umuman, bu asardagi qahramonlarning hammasi deyarlik faylasul-fildir. Bularning miyasi hikmatlik so'zlar va zarb-masallar uyasidir. Bular odatiy ijtimoiy va moddiy turmush inqilobchilari bo'lg'on odamlar emaslar.

Qisqasi, Fitratning tomoshaliqlari, qahramonlarida turmushning, voqeaning bergan fikr va hodisalarini o'zining tabiiy ravishda so'zlata olish xususiyatidan umuman mahrumdir.

"Turkiston" gazetasi
1924-yil 12-yanvar.
Nashrga tayyorlovchi
Bahodir KARIM


O'ZBEK YOSH SHOIRLARI: Fitratning tomoshaliq ham hikoyalari

Fitrat tomoshaliq asarlarini o'zbek turmushidan olib yozmaydir. U o'zbek shoiri Turkiston bog'larida emas, Himolay tog'lari tegrasida uchadur. Uning "Chin sevishi" ham, "Hind ixtilochilari" ham Hindiston xalqi turmushidan olib yozilg'on.

Fitrat tomoshaliqlarida birgina tub fikrni olmasdan va birgina maqsad kuzatmasdan shoshib qoladir. Masalan, "Chin sevishi"da Fitrat shu uch turlik maqsad va uch turlik tub fikrni kuzatadir: 1) chin sevish-ishq; 2) butun Ovro'poning, ayniqsa, inglizlarning musulmonlarga zulmi; 3) hind ixtilochilarining harakati...

Asarning birinchi tub maqsadi ishqni suratlandirmak, umuman ishq to'g'risida, ayniqsa, sharq ishq haqida falsafiy fikrlar sochmoq bo'lib, bu to'g'risida shoir o'zi tamoman Nuriddin (asar qahramoni)da yashiring'on ko'rinadir. Ovro'po va inglizlarning zulmi to'g'risida yana shoirning Hindis-

ton odami orqasiga yashiring'onini sezamiz. Kitobning 5-pardasida Karimbaxsh ko'rsatilgan ixtilochilar yig'ini, uning ixtilochilar harakati, inglizlar bilan urushib qurbon bo'lishlari hech shubhasiz o'zi bir mavzu, o'zi bir tub maqsad, tub fikrdur. Mana shu uch turlik muhim maqsad bir-biri bilan aralashdirib yuborilg'onligidan shoir shularning hech birisini tugul bera olmag'on. Bu asarda umuman voqealar ham pardalarda sakrab yurib, bir-biri bilan tabiiy bog'lana olmasdan boradur. Undan keyin voqealar juda yollug'lik bo'lub borishi kerak bo'lg'on holda, so'nik bir ruhda boradur.



Naimjon Yoqubzoda 1890-yili tug'ilgan, Buxoro shahridan, yirik savdogarning o'g'li, xizmatchi, sudlangan. Aksilinqilob millatchi "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi, doimiy ravishda uning yig'ilishlarida qatnashganlikda, chet elda "Milliy ittihad"ning xorijiy byurosini tashkil qilish uchun odamlar va mablag'larni Afg'onistonga o'tkazishni tayyorlaganlikda, Germaniya va Afg'oniston konsulliklari bilan yashirin aloqa o'rnatganlikda ayblangan.

Burxonov Mukomil 1889-yili tug'ilgan, Buxoro shahridan, ruhoniy, mudarris o'g'li. VKP(b) a'zosi, diniy e'tiqodi tufayli partiyadan chiqqan. Buxoro Xalq Sovet respublikasi huzurida Adliya vazirligida ishlagan, nafaqada. Aksilinqilobiy millatchi "Milliy ittihad" tashkiloti markazi a'zosi, uning xazinaboni, qurolli qo'zg'on masalalari muhokama qilingan aksilinqilobiy tashkilotining kengashlarida faol qatnashganlikda, millatchilik tashviqotini olib borganlikda ayblangan.

Xo'jayev Hamra 1897-yili tug'ilgan, Samarqand shahridan, ruhoniy, xizmatchi oilasidan. VKP(b) sobiq a'zosi, millatchi sifatida partiyadan chiqarilgan, hibsga olingunga qadar aniq mashg'uloti bo'lmagan. "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi. Siyosiy xodimlarni o'ldirishni tashkil etish bilan bog'liq maxsus maxfiy ijrochisi bo'lganlikda, millatchi, aksilinqilobiy tashkilotning yig'ilishlarida muntazam qatnashganlikda, O'zbekistonda Sovetlardan ajratib olish masalalarini muhokama qilishda faol ishtirok etganlikda, zararkunandalik, buzg'unchilik faoliyat olib borganlikda ayblangan.

(Davomi kelgusi sonda).



Isajon SULTON,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

Mehmonxonaga cho'g'day ko'rpachalar solinib, yostiqlar, lo'labiloshlar qo'yildi. Oqsochlar esa norin uchun xamir qorib, hil-hil pishgan ot va qo'y go'shtini maydalab to'g'lashga kirishishdi.

Aytilgan vaqtda mehmonlar birin-ketin kela boshlashdi. Avval movut to'n kiyib, katta oq salla o'ragan bir ulamo bilan ingichka mo'ylovli, chuqur ko'zli birov kirib keldi. Bu kishi shahardagi ko'zga ko'ringan imom-xatib Zahiriddin A'lam, hamrohi esa bir qancha muddat Boku va Istanbulga qatnab yurgan Ziyo afandi edi. So'ng bejirim simobi chopon kiyib, xiyla katta salla o'ragan o'rta jussali, qo'ng'iz mo'ylovli odam – To'lagan qori ko'rindi. Abduvohid qori ularni darvozaxonada ehtirom bilan kutib olar, xizmatkorlar darhol keluvchilarning choponlarini olib, qo'llariga suv quyib, ichkariga taklif qililar edilar.

Hamma kelib bo'lgach, "Kelinglar, kelinglar" degan g'ovur-g'uvur bilan o'tirishib, duo qilishdi. Kelganlar o'n to'rt kishi edi. Guldor qashqar choynaklarda choy kirdi. Kimga ko'k, kimga famil choy quyildi. Hamma zir yugurib xizmat

qilar edi. Go'shtkuydi somsalar lipopchalarga solib uzatildi. Ortidan murch-piyoz aralash, sho'rvali norin kirdi. Kelganlar bulardan oz-oz tanovul qilib, tayyorlaganlarni duo qilishib, dunyoda bo'layotgan ishlardan so'zlashib o'tirishdi.

Chuvak yuzli, betida katta xoli bor kishi – Abdurashid xo'ja Abduvohid qoriga murojaat qilib:

– O'tgan gal hurmatli qori jadidlik haqidagi fikrlarini poyoniga yetkazmagan edilar. Fursatdan foydalanib, bu gal tamomini bag'ishlasalar-u, yoshlarimiz ham eshitib, bilib olsalar degan o'tin-

anglatishini yaxshi bilurlar. Agar dunyoda bor narsalarga razm solinsa, har birida tajdid, ya'ni jadidlik borligi payqalur. Misol uchun, bahor-yoz ham, kuz-u qish ham jadididir, ya'ni yangilovchidir.

– To'g'ri! Juda to'g'ri aytdingiz!
– Endi jadidlik va islom masalasi-ga kelsak, islom har doim jadidlikka yor bo'lganligini ko'ramiz. Dinimiz tarixiga nazar solsak, jadidlik yo'lini tutgan fidoyilarga duch kelamiz. U zotlar har yuz yilda bir mujaddid foylaguvchilar kelishi uchun duo qilganlar, ya'ni, har yuz yilda turmushda katta bir o'zgarish sodir

maviylar kelib, oraga shaxsiyatni aralashira boshladilar. Bu chiziqdan chiqquvchilarga Abu Zar va uning maslakdoshlari qarshi turib, uzoq vaqt kurash olib borsalar ham, lekin natijada ashrof sinfi g'olib kelib, Abu Zar va tobe'lari yengildilar. Shundan keyin sekin-sekin hayotning mehvari bo'lmish islom siyosati yangilish yo'li bilan taraqqiy eta boshladi. Mashvarat usuli yo'qoldi, islomning idorai jumhuriyasi idorai mustabidaga aylandi, jadidlik asoslari buzila boshladi.

Asl asos ruhi bilan sug'orilgan jadidlar har asr sayin chiqib, xalqni

Islom olamining o'zidan chiqqan tajdid dushmanlari bo'lmasa edi, ularning sharqdagi istibdodining ruhiga ham fотиha o'qilgan bo'lur edi...

– Go'yo fursatdan foydalanib, yurti qutqarib olishning fursati yetgandek edi-ya! Lekin najot tashdan kelmasligiga yana bir karra amin bo'ldik. Na farang, na olmon va'dasining ustidan chiqdi. Qo'ynimizni puch yong'oqqa to'ldirdi-yu, amalga kelganida jimjilog'ini ham qimirlatib qo'ymadi.

– Ortidan esa g'azovot urushi boshlanib ketdi... – davom etdi Zahiriddin qori. – Burgutday yigitlar el-yurt, or-nomus deb, tish-tirmog'igacha qurollangan lashkarga qarshi yoy-qilich yoxud qo'shotar bilan qarshi chiqib, jondan kechib halok bo'lib ketmoqdalar. Ayniqsa Qo'qonni ayting, bunday jang-u jadalni dunyo ko'rmagan. Shermuhammadbek, Madaminbek, Xolxo'ja eshon O'zgan va Toshkent orasida dasht kezadi, Qorategin, Boljuvon, Ko'lob va Buxoroda laqay Ibrohim-bek kofirning jonini Azroidek oldi, Samarqandda Ochilbek bilan Bahrombek qo'rboshi, Qarshi-yu Kosonda Turdi to'qsoba, Gul oqsoqol jon tikadi. Minglab yigitlarning oziq-ovqati, qurol-yarog'i, yotib-turishi qaysi mablag' hisobiga ta'min qilinsin? Haliyam shu xalqqa ta'zim qilish kerak, yeb turgan nonining yarmini berib, qo'rboshilarni qo'llab-quvvatlab turibdi!

– Bu yo'lda qo'lga qurol olgan xotinlarni aytmaysizmi? Ibrohim-bek laqay qo'shiniga karmanalik Nodira qiz bir bo'luk tuzib qo'shilgani, oltiariqlik Shakarxon erkakcha kiyinib, Iskobil turmasidagi bosmachi yigitlarni ozod qilgani, Xolxo'ja eshonning singlisi Oyshaxon akasi bilan bir safda turgani yo o'shlik Oyimcha xotun O'zganda asirlarni qutqarganining o'zi qanchalar jasorat...

– Eh, nimasini aytasiz... Urush qonuniyatiga ko'ra, xalqqa tegilmas, jangga faqat qo'shin kirar, g'alabasi yo mag'lubiyati halol bo'lar edi. Oqposhsho qo'shini qora xalqni, askarmi, baringning qonini birday to'kkani xalqning suyagiga borib taqalgani uchun qo'zg'aldi, desangiz-chi. Ammo, afsuski, bu ishlardan biron bir natija chiqmadi....

HASRAT

“Ma'suma” romanidan parcha

chimiz bor edi, – dedi.

– To'g'ri, yaxshi ish bo'lardi, – dedi bir necha kishi.

– Bu masalani kuni kecha poyoniga yetkazib edik, bori, mulla Zahiriddin ayta qolsinlar, – dedi Abduvohid qori.


Mulla Zahiriddin A'lam asli andijonlik bo'lib, bir qancha yil burun Toshkentga kelgan va Abduvohid qori boshchiligidagi “Sho'roi islomiya”da qorining yonida xizmatda edi. U o'rindan qo'zg'alib, “Bismilloh” deb cho'k tushib oldi-da, dedi:

– To'g'ri aytasiz, yoshlarimiz nima uchun “inqilob” yoxud “ixtilol” emas, balki “jadid” so'zi qo'llanganiga hayron bo'lmoqdalar. Arabchadan xabardor kishilar “jadid” so'zi “tajdid”ning birligi bo'lib, ma'nosi “yangilovchi” va “inqilob toptiruvchi” degan mazmuni

etishini Parvardigordan tilaganlar. Shu sababli, dinimiz tarixini asrlarga bo'lib, har bir asrini tekshirangiz, saf-saf jadidlarga duch kelasiz.

Islomdagi jadidlarning xizmatlari amalga tatbiq etilganida, turmushda ulug' inqiloblarning zuhur etadi va shu bilan, boylik qullari va xalqni talaydigan nokaslar yer bilan yaxson bo'lurlar... Qarang, dunyoga haq din keltirildi va u johil arablar orasiga kirgizilgan jadidlik – islohot bo'ldi. Bu ezgu ish Abu Jahl va Abu Lahablarning izzat-nafs va manfaatlariga mos kelmagan uchun, ular bor kuchlari bilan islomga qarshi turdilar va nihoyat, o'zlarining haqsiz janjallari yo'lida qurbon bo'lib ketdilar. Islom, zamonasiga muvofiq barcha ishlarga islohot kirgizdi, inqilob yasadi.

Oradan ko'p vaqt o'tmadi. Ish boshiga ashrof Makka avlodi, um-



asosga chaqirdilar va bunga bir qadar muvaffaq ham bo'ldilar. Lekin har asrning tuzalmay qolgan buzuqliqlari yig'ilib kelib, keyingi kunlarda mo'minlar boshiga bitgan balo bo'ldi.

Islom razolatini istaguvchi sobiq O'rusiya Chori va hozirgi Inqiliston hukumati bizning tajdid dushmanlarimizning boshlarini silaguvchilardan bo'ldilar. Chunki, ular Sharqda o'z saltanatlarining yolg'iz shu tajdid dushmanlari tirik bo'lub turgandagina yashashiga iymon keltirgan edilar. Voqean, Ovro'po mustabidlarining tutgan bu yo'llari to'g'ridir. Agar Sharq –

Men ko'ib umrimni shu yurtning tinchligi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne el ekanin bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb-ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi.

Abdulla QODIRIY



JAJJI TADQIQOT

Kichkinagina “vergul” nafaqat yozuvni to'g'ri o'qishda, balki yaqin tariximizni to'g'ri tahlil etishimizda ham bizga yordam berishi mumkin. Xo'sh, qanday qilib?

VERGUL,

“vergul” negadir ruscha (“zapyataya”) emas, fransuzcha (“vergule”). Aksariyat ovro'po tillarida “vergul” o'rinda hozirda asli yunoncha – “comma” (“comma”, “komma”, “koma”) qo'llanadi, lotincha (“virgula”) “vergul” esa faqat fransuz va boshqa ovro'po tillarida saqlangan. Xo'sh, qanday qilib tilimizga olis fransuzchadan “vergul” o'tib qoldi?

Hozirda turk, o'zbek, ozarbayjon, turkman, fors va tojik tillarida “vergul” ishlatiladi. Bu ham bejiz emas, o'tmishda mazkur tillar qo'llanadigan hududda ikki tili yagona madaniy muhit mavjud edi desak, xato bo'lmaydi. Ammo “vergul” bu hududga to'g'ridan to'g'ri emas, usmonli turkchasi orqali kirib kelgan.

Turkiyalik olim Ali Chichek Usmonli davlatida G'arb madaniyati, xususan, fransuz tili va madaniyati bilan dastlabki aloqalar katoliklarning dominikal va fransiskanlar diniy sektalari vositasida boshlangan, deb yozadi. Mazkur sektalar fransuz tili va madaniyatini butun dunyoga yoyish bilan shug'ullangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turk ziyolilari o'rtdasidagi Ovro'po, jumladan, fransuz madaniyati va adabiyotiga qiziqish, fransuz tili

maktablarning ochilishi, turk tilini arabiy va fors so'zlardan tozalash harakatlari natijasida turk tiliga ko'plab fransuzcha so'zlar kirib kela boshlagan. Ali Chichek turk tiliga ovro'po tillaridan eng ko'p o'zlashgan so'zlar – bu fransuzcha so'zlar ekanligini yozadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshida nafaqat usmonlilar, balki turkiy xalqlarning boshqa madaniy o'choqlari, shu jumladan, Turkistonda ham ma'rifatchilik, G'arb madaniyatiga intilish kayfiyati paydo bo'la boshladi. Shuning mahsuli o'laroq XX asr boshida jadidlar harakati Istanbul bilan ham qizg'in munosabatda edi. Qadimchilarga muxolif bo'lgan jadidlar ko'pgina inqilobiy o'zgarishlar, shu jumladan, alifbo, tilni ham isloh etish tarafdori edilar. Fransuzcha “vergul” ham tilimizga o'sha davrda jadidlar, ularning nashrlari orqali kirib keldi. Bu esa til qoidalari, grammatikaga oid islohotlar ham jadidlar tomonidan boshlangani, ammo tugallanmaganligi, ya'ni bu ishga “nuqta” emas, “vergul” – (,) qo'yilganligi va sovet davrida davom ettirilganligidan darak beradi.

Abduvohid HAYIT

Oyina.uz kutubxonasi

AKS SADO

Ertalab uyg'onganimda deraza ortini qoplagan tumanga ko'zim tushdi. Quyuc tuman dilni siqadi. O'rnimdan turib, derazani ochib yuborgandim, to'satdan paydo bo'lgan jinto'polon yopirilib, xonam chang-to'zonga to'ldi. Tuman deb o'ylaganim chang-to'zon ekan. Darhol derazani yopdim. Shahrimizga olis yurtlardan sayohatga kelib, yuzlarini sharf, ro'mol bilan o'rab yuradigan sayyohlar ko'z o'ngimdan o'tdi.

KO'ZIMIZNI OCHAYLIK

Ha, ularning osori atiqalar-u ulug' obidalarimizdan bahramand bo'lish orzusini nomaqbul havo chilakka chiqarayotgani dilimni xufton qildi. Nahotki, keyingi yillarda alohida e'tibor qaratilayotgan sayyohlik sohasidagi salohiyatini dunyoga ko'z-ko'z qilishda ishongan shahrimiz Buxoroning ob-havosi shunaqa bo'lib tursa?... Axir, bu holda sog'lig'iyu salomatligini hamma narsadan ustun qo'yadigan xorijliklarning yurtimizda tashrifi kamayib ketmasligiga kim kafolat bera oladi? Aytishlaricha, ular biror mamlakatga boradigan bo'lsa, birinchi galda u yerdagi ob-havoning qandayligi bilan qiziqarkan. Daraxtlari o'ylamay kesib tashlangan, ariqlari ko'mib yuborilgan ayrim shaharlarimizning bugungi ob-havosi ularni mutlaqo qoniqtirmasligi aniq. Bunday ahvolni ko'rib turib, beixtiyor bitta chinordan o'nta mebel yasab sotishni mo'ljalagan va yeng ichida bu ishni bajarib tarallabedod qilib yurgan kimsalarga qarata: hoy, vijdotsizlar janatga qiyoslangan manzil-maskanlarimizni cho'lu biyobonga aylantirmang!

Bu yurt, bu zamin o'zimizniki, bizniki, kelgusi avlodlarimizniki, u sizlarning chekingizga tushmagan, deb hayqirgning keladi.

Bu fikrlar ilk sonlaridanoq dadil fikrlarni ko'tarib chiqishga chog'langan “Jadid” gazetasi joriy yil 5-yanvar sonida berilgan Go'zal Xalilovning “Tiniq osmon, yashil makon” sarlavhali, yurtimiz, ekologiyasi haqida maqolasini o'qiganimdan so'ng xayolimdan kechdi. Maqoladagi: “Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda poytaxtimiz havoning ifloslanishi bo'yicha dunyoda yuqori o'rnlarda turgani achinarli holdir”, “Keyingi uch kunda Toshkent shahri havosi sifati (AQI) haqida berilgan ma'lumotda haftaning seshanba, chorshanba kunlari shahar havosi zararli, deb baholandi” singari tashvishli ma'lumotlar har birimizni hushyorlikka chorlashi tayin.

Ha, yurtimiz havosining toza bo'lishi o'zimizga bog'liq. Najot ham, falokat ham o'zimizda. Ko'zimizni ochaylik.

Mohigul NAZAROVA,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning
birinchi o'rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Shuhrat Azizov

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat
nuqtai nazaridan farqlanishi
mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan
195115 raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 4135
Lotin yozuvidagi adadi – 11775
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy
Telefonlar:
(71) 233-11-07

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:00
Sotuvda narxi erkin.

